



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

4 / 2022



Crossref
Content
Registration

ILMIY-AMALIY JURNAL

TAHRIR HAY'ATI

Q. ABDURASULOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

Y. KOLENKO

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

K. HAKIMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori – mas'ul muharrir

M. RUSTAMBAYEV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. OTAJONOV

Yuristlar malakasini oshirish markazi direktorining o'quv-uslubiy va ilmiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

B. PULATOV

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

F. RAXIMOV

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Prokurorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

B. UMIRZAKOV

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrası katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

M. O'RAZALIYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

M. KURBANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsent v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

V. DAVLYATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. BAZAROVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

A. BARATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Kriminalistika va huquqiy ekspertiza kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

D. SUYUNOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professor v.b., yuridik fanlar doktori

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Qurbonov Davlat Ravshanovich

SHAXSNING OZODLIGIGA QARSHI JINOYATLAR OBYEKTI 4

Altiyev Razzoq Saidovich

JINOIY JAVOBGARLIKNI LIBERALLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI 19

Muslimov Ikrom Tuxtamuratovich

JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARGA DOIR JINOYAT QONUNCHILIGI
NORMALARINING RIVOJLANISHI 29

Tosheva Maftuna Anvar qizi

XORIJIY DAVLATLARDAXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING JINOIY-HUQUQIY MASALALARI 37

Xoliqov Farhod O'ktamovich

BOJXONA TO'G'RISIDAGI QONUN Hujjatlarni buzish jinoyatining o'ziga xos
jihatlari va obyektiv belgilari 46

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich

QILMISH YOKI SHAXS IJTIMOY XAVFLILIGINI YO'QOTGANLIGI MUNOSABATI BILAN
JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING AYRIM MASALALARI 58

UDC: 343.37(045)(575.1)

SHAXSNING OZODLIGIGA QARSHI JINOYATLAR OBYEKTI

Qurbonov Davlat Ravshanovich,

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yuridik fakulteti Maxsus huquqiy fanlar kafedrası mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0003-4475-0465
e-mail: davlatkurbonov73@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblangan shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning obyekti bilan bog'liq masalalar ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotning maqsadi shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarga umumiy tavsif berish, ularning ijtimoiy xavfliligini yoritish, mazkur toifadagi qilmishlar tarkibida jinoyat obyektni tahlil qilish va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Barcha davrlarda inson hayoti, erkinligi va ozodligini turli g'ayriqonuniy qilmishlardan muhofaza qilish dolzarb va muhim masala bo'lib kelgan. Shu sababdan mamlakatimiz qonunlarida insonning mazkur huquq va manfaatlari muhofazasiga alohida e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida shaxs, uning huquq va erkinliklari jinoyat-huquqiy muhofaza obyektlari doirasiga kiritilgan bo'lib, JKning 135–141-moddalarida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanganligi shaxsning ozodligi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinishining alohida ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Ushbu tadqiqot ishida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning turlari, ularning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida milliy va xorijiy olimlarning qarashlari, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan normalar mazmuni yoritilgan va har bir masala yuzasidan muallifning xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: shaxsning ozodligi, erkinlik, jinoyat tarkibi, jinoyat obyekti, ijtimoiy munosabatlar, shaxsning sha'ni va qadr-qimmat, umumiy obyekt, maxsus obyekt, turdosh obyekt, bevosita asosiy obyekt, bevosita qo'shimcha obyekt, bevosita fakultativ obyekt.

ОБЪЕКТ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ СВОБОДЫ ЛИЧНОСТИ

Курбонов Давлат Равшанович,

кандидат юридических наук, доцент, заведующий кафедрой «Специальные
юридические науки» юридического факультета
Самаркандского государственного университета им. Ш. Рашидова



Аннотация. В данной статье представлен научно-теоретический анализ вопросов, связанных с объектом преступлений против свободы личности, которая считается одним из основных конституционных прав граждан. Целью данного исследования является дать общую характеристику преступлениям против свободы личности, выделить их общественную опасность, проанализировать объект преступления в данной категории деяний и сделать выводы. Защита жизни и свободы человека от различных противоправных действий во все времена была актуальной и важной задачей. По этой причине в законодательстве нашей страны особое внимание уделяется защите этих прав и интересов человека. Например, в Уголовном кодексе Республики Узбекистан человек, его права и свободы отнесены к сфере объектов уголовно-правовой охраны, а в статьях 135-141 Уголовного кодекса определяется ответственность за преступления против свободы, честь и достоинство человека, что указывает на их особую важность. В данной исследовательской работе анализируются виды преступлений против свободы личности, их общий, специальный, смежный и непосредственный объекты. В процессе исследования использовались исторический, систематический, логический (анализ, синтез), сравнительно-правовой, методы анализа практики применения закона научного познания. В результате исследования были уточнены взгляды отечественных и зарубежных ученых, содержание норм, определенных в соответствующих нормативно-правовых документах, а также изложены авторские выводы по каждому вопросу.

Ключевые слова: свобода личности, вольность, состав преступления, предмет преступления, общественные отношения, честь и достоинство личности, общий предмет, особый предмет, однородный предмет, прямой основной предмет, прямой дополнительный предмет, прямой факультативный предмет.

OBJECT OF CRIMES AGAINST PERSONAL LIBERTY

Kurbanov Davlat Ravshanovich,

Head of the Department of "Special Legal Sciences"

of the Faculty of Law, Samarkand State University named after Sh.Rashidov,

Candidate of Legal sciences, Associate Professor

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of issues related to the object of crimes against the freedom of a person, which is considered one of the main constitutional rights of citizens. The purpose of this study is to give a general description of crimes against the freedom of the person, to highlight their social danger, to analyze the object of crime in this category of acts, and to draw conclusions. Protection of human life, liberty, and freedom from various illegal acts has been an urgent and important issue at all times. For this reason, the laws of our country pay special attention to the protection of these human rights and interests. For example, in the Criminal Code of

the Republic of Uzbekistan, a person, his rights and freedoms are included in the scope of objects of criminal law protection, and in Articles 135-141 of the Criminal Code, responsibility for crimes against the freedom, honor, and dignity of a person is defined and this indicates particular importance. In this research work, the types of crimes against the freedom of a person, and their general, special, related, and direct objects are analyzed. Historical, systematic, logical (analysis, synthesis), and comparative-legal methods of analysis of the practice of applying the law of scientific knowledge have been used in the research process. As a result of the research, the views of national and foreign scientists, and the contents of the norms defined in the relevant regulatory legal documents have been clarified, and the author's conclusions on each issue have been stated.

Keywords: *freedom of the person, liberty, structure of the crime, object of a crime, social relations, honor and dignity of the person, general object, special object, similar object, direct main object, direct additional object, direct facultative object.*

Kirish

Shaxsiy erkinlik, ozodlik insonning uzviy huquqlaridir. U har kimda tug'ilgan paytidan boshlab boshqa tabiiy huquqlar bilan birga paydo bo'ladi. Har bir inson faqat qonunda belgilangan asos va tegishli tartib-taomillarga muvofiq ozodlikdan mahrum qilinishi, qamoqqa olinishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin [1, 56-b.]. Bu konsepsiya 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Asosiy qonunimizda insonning asosiy huquq va erkinliklari orasida erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi ham e'tirof etilgan. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasi). Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Shaxsning daxlsizligi, shaxsiy erkinlik to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidalar jinoyat huquqi normalari bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining VI bobida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining "Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar" bobida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning quyidagi to'rtta turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan: odam savdosi (135-modda), ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda), odam o'g'irlash (137-modda) va zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (138-modda).

JK 135-141-moddalarida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanganligi shaxsning ozodligi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinishining alohida ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagi "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni (yangi



tahrirda), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-iyuldagi Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5775-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-fevraldagi Odam savdosidan jabrlangan yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo'naltirish tizimini tasdiqlash to'g'risidagi 60-son, 2021-yil 22-noyabrdagi Odam savdosi sohasidagi jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 708-son qarorlari qabul qilinganligi, o'tgan yaqin davr oralig'ida O'zbekiston Respublikasida Bolalarning boshqa mamlakatlarga o'g'irlab olib ketilishining fuqarolik jihatlariga to'g'risidagi Haaga konvensiyasi, Odam savdosi va uchinchi shaxslar tomonidan fohishalikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risidagi, Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyalarning ratifikatsiya qilinganligi shaxsning ozodligi va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiq etilishi mo'ljallanayotgan, ya'ni shaxsni g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilganlarning harakatlarini kvalifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar, asosan, mazkur jinoyatlarning ko'pincha shaxsga qarshi boshqa og'ir qilmishlar (jabrlanuvchi yoki o'zga shaxslarni qasddan o'ldirish), shuningdek, tovlamachilik, nomusga tegish bilan birga sodir etilishida namoyon bo'ladi. Mazkur turdosh jinoyatlar oqibatida jabrlanuvchiga jismoniy, ruhiy shikast yetkazilishi ularning ijtimoiy xavflilik darajasini keskin oshiradi, o'z navbatida, ushbu holatlarda jinoyat obyektni to'g'ri baholash va jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan jinoyat tarkiblarining barchasi jinoyatning ayni bir obyektiga ega: bu – shaxsning ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur birlashtirish nazariy va amaliy nuqtayi nazardan qay darajada asosli ekanligini jinoyatning obyekti tushunchasini tahlil qilish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot jarayonida uchta savolga javob topishga harakat qilindi: birinchidan, mamlakatimizda jinoyat qonunchiligida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning qanday turlari uchun javobgarlik belgilangan va ularning ijtimoiy xavfliligi darajasi qanday; ikkinchidan, shaxsning ozodligiga qarshi har bir jinoyat orqali qanday ijtimoiy munosabatlarga zarar yetadi; uchinchidan, shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning obyekti yuzasidan qanday xulosalar bildirish mumkin?

Ushbu savollarga javob topish orqali mazkur tadqiqotda jinoyat qonunchiligini qo'llash amaliyoti materiallari va ushbu masalaga doir olimlarning asarlaridan foydalanildi hamda muallifning xulosa va mulohazalari ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat huquqi fani nazariyasining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jinoyatning obyekti masalasini yechishga doir yagona konsepsiya yo'qligiga guvoh bo'lamiz.

Bu borada konseptual jihatdan bir-biriga zid bo'lgan bir qancha ta'limotlar ilgari surilgan. V.D. Spasovich boshchiligidagi bir guruh mualliflar [2, 94-b.] "subyektiv huquq" nazariyasining tarafdorlari bo'lishgan. Ular jinoyatning predmeti va obyekti tushunchalarini bir xillashtirganlar hamda o'zlari ishlab chiqqan yagona tushunchani "biror kimning davlat tomonidan jazo vositasida qo'riqlanadigan huquqi" deb tavsiflaganlar. Olimlar o'z xulosalarini huquq subyektiv xususiyat kasb etishi, inson yoki shaxslar guruhiga tegishli bo'lishi va jinoyat har doim biron-bir shaxsga qarshi sodir etilishi, binobarin, har qanday jinoyatning predmeti faqat shaxs bo'lishi mumkinligi bilan asoslaganlar. A.F. Kistyakovskiy ham shu konsepsiyaga qo'shilgan va mol-mulk hamda hayvonlar jinoyatning obyekti deb e'tirof etilishi mumkin, chunki ularga inson mulk huquqida egalik qiladi, deb hisoblagan.

U, jumladan, shunday deb yozgan: "umuman olganda, jinoyatning obyekti sifatida faqat inson, u ijtimoiy mavjudot sifatida yaratuvchi barcha huquqlar va muassasalar bilan birga e'tirof etilishi mumkin. Shu tufayli ham jinoyatning u yoki bu darajada asosiy obyektlari hisoblanadigan, ta'bir joiz bo'lsa, tabiat tomonidan yaratilgan obyektlar – hayot, sog'liq, ozodlik, sha'n va qadr-qimmatdan tashqari ashyolar, hayvonlar, muassasalar ham ma'lum nuqtayi nazar jinoyatning obyektlari hisoblanadi" [3, 310-b.].

Subyektiv huquq nazariyasining muxoliflari jinoiy tajovuzdan bevosita buziladigan yoki jabr ko'radigan narsa, ya'ni jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan jamoat manfaati yoki xususiy manfaat jinoyatning obyekti bo'lishi mumkin [4, 234-b.], degan fikrni ilgari surganlar.

Jinoyatning obyekti tushunchasining uchinchi ta'rifi ham mavjud bo'lgan. Uning tarafdorlari jinoyatning obyekti ikki yoqlama xususiyatga ega [5, 31-32-b.], degan fikrni asoslashga harakat qilganlar. Ularning mulohazalari mantiqiga ko'ra, jinoyatning obyekti – bu ham huquq normasi, ham muayyan qadriyat (manfaat)ni o'z ichiga oluvchi kompleks tushunchadir. N.D. Sergiyevskiy qayd etganidek, "har qanday jinoiy qilmish o'z mohiyatiga ko'ra, ijobiy huquq normalarini buzuvchi shunday bir harakat hisoblanadiki, u ayrim shaxslar yoki butun jamiyatga moddiy yoki ideal zarar yetkazish jihatini o'zida mujassamlashtirishi shart" [6, 400-b.].

1917-yil oktabr oyida sodir bo'lgan to'ntarish chor Rossiyasining siyosiy va ijtimoiy tuzumini vayron qilish bilan bir qatorda, mamlakatning jinoyat qonunchiligi siyosatida ham tub o'zgarishlar yasadi. Sho'ro jinoyat huquqining ilk normativ-huquqiy hujjatlarida ularning asosiy vazifasi mehnatkash omma manfaatlariga mos keluvchi ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlashdan iborat ekanligi qayd etiladi. Chunonchi, 1919-yilda qabul qilingan RSFSR jinoyat huquqi bo'yicha rahbarlik asoslarida jinoyat huquqi va jinoyat tushunchasiga ta'rif berishda ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyekt sifatida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib o'tiladi (2-, 3-, 5-bandlar). Keyinchalik qabul qilingan qonun hujjatlari (1922-yilgi RSFSR JK, 1924-yilgi SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligining asosiy negizlari, 1926-yilgi O'zSSR JK, 1958-yilgi SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligi asoslari, 1959-yilgi O'zSSR JK)da ham ijtimoiy munosabatlarning muayyan majmualariga jinoyat obyekti sifatida ishora qilinadi. B.S. Nikiforov shaxsga



qarshi jinoyatlarni nazarda tutgan holda, shunday deb yozadi: “Bunday hollarda jinoyatning obyekti ijtimoiy munosabatlarning o‘zlari emas, balki ularning subyektlari hisoblanishini ta’kidlovchi darsliklarning mualliflaridan farqli ravishda, biz ijtimoiy munosabatlarning subyektlari mazkur munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tufayli ham jinoyatning obyekti tushunchasining mazmuniga ular ham, bular ham kiritilishi shart, deb hisoblaymiz” [7, 132-b.]. N.E. Martinenko jinoyatning obyekti xususidagi odatdagi nuqtayi nazarga tayangan holda, insonga tajovuz predmeti sifatida qaraydi [8, 10-b.]. Bizning nazarimizda, bu fikrga qo‘shilish mumkin emas. Zero, inson hayoti, sog‘lig‘i va boshqa nomoddiy qadriyatlarini moddiylashtirish yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan bir holdir.

Jinoyat huquqi nazariyasida ba’zi bir olimlar “qadriyat” va “manfaat” kategoriyalarini bir xillashtirishga asoslangan yondashuvni tanqid qiladilar. Masalan, A.N. Krasikovning fikriga ko‘ra, hamonki jinoyat huquqi moddiy huquq ekan, u jinoyatlardan manfaatlarni emas, balki jamiyatda mavjud bo‘lgan va jinoyat qonunida belgilangan qadriyatlar yig‘indisini qo‘riqlaydi. Shu bilan bir vaqtda, muallif huquq bilan mustahkamlangan manfaat huquqiy qadriyatga aylanishini ta’kidlaydi [9, 66-b.]. Bizning nazarimizda, bu masala xususida M.R. Snaxova juda to‘g‘ri fikrni ilgari surgan. U “qadriyatlar” yoki “manfaatlar”ni jinoyat obyekti sifatida e’tirof etish imkoniyati to‘g‘risida mulohaza yuritir ekan, “mazkur masala bo‘yicha kelishmovchiliklar – bu jiddiy emas, balki faqat yuzaki kelishmovchiliklardir. Aslini olganda, turli mualliflar ayni bir ijtimoiy hodisaga turli nuqtayi nazarlardan yondashadilar” [10, 21-b.].

Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida mavjud bo‘lgan jinoyatning obyekti xususidagi asosiy konsepsiyalar tahlili quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi: huquq bir insonning manfaatlarini boshqa insonning tajovuzlaridan himoya qiladi. Tegishli ravishda bu manfaatlar ularning o‘rtasidagi huquq normasi bilan tartibga solinuvchi muayyan o‘zaro munosabatlardan kelib chiqadi. Shu jihatdan olganda, M.H. Rustamboyevning jinoyat obyektiga bergan quyidagi ta’rifiga qo‘shilish mumkin: “Jinoyat obyekti – bu jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir” [11, 112-b.]. Biz ko‘rib chiqayotgan holda, bunday munosabat sifatida insonning shaxsiy erkinligi (ozodligi)ni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar amal qiladi.

Ma’lumki, jinoyat obyekti gorizontal va vertikal yo‘nalish bo‘yicha tasniflanadi. Vertikal yo‘nalish bo‘yicha jinoyat obyekti to‘rt turga, ya’ni umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlarga ajratiladi. Gorizontal yo‘nalish bo‘yicha esa bevosita asosiy, bevosita qo‘shimcha va bevosita fakultativ obyektlarga bo‘linadi.

Jinoyatning umumiy obyekti jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan umumiy munosabatlardan kelib chiqadi. Bunday munosabatlar doirasi JKning 2-moddasida belgilangan. Ushbu qoidadan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning umumiy obyekti shaxsni jinoyat-huquqiy muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Shuni qayd etish lozimki, ayrim olimlar jinoyat qonunining bo‘lim va boblari jinoyatning maxsus va turdosh obyektlariga ko‘ra tuzilishi kerak [12, 18-b.], deb

hisoblaydi. Shu o'rinda A.S. Yakubovning "Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tizimini tuzish uchun maxsus obyekt asos bo'lishi kerak" [13, 47-b.], degan fikri katta ahamiyatga ega. Ba'zilar JKning bo'limlari maxsus obyektga asosan, bobi turdosh obyektga qarab, moddasi esa bevosita obyektiga ko'ra tuzilishi lozim [14, 112-113-b.], deydi. N.I. Vetrovning fikriga ko'ra, JK Maxsus qismi normalari qilmishning maxsus obyektiga asosan tizimlashtirilgan. U har bir bo'lim yoki hatto bob ham o'zining maxsus obyektiga ega [15, 114-b.], deydi. Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus obyekt o'xshash bo'lgan jinoyatlar JK Maxsus qismi bo'limlariga, ular orasidan turdosh obyekt o'xshash bo'lgan jinoyatlar esa boblarga ajratib joylashtirilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning maxsus obyekt shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, turdosh obyekt esa shaxsning ozodligi, erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir, degan xulosa chiqarish mumkin.

Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning bevosita obyektlari esa to'g'ridan to'g'ri alohida moddalarda ifodalanishini inobatga olsak, shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning bevosita obyektlarini ushbu bob tarkibidagi jinoyatlar doirasida alohida tartibda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Avvalo, tahlilimizni odam savdosi jinoyatining obyektidan boshlasak. Odam savdosida bevosita tajovuz shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qaratiladi. Jumladan, A. Otajonovning fikricha, ushbu jinoyatning bevosita obyekt shaxsning ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi [16, 173-b.]. M.H. Rustamboyevning qayd etishicha, odam savdosining bevosita obyektini shaxsning shaxsiy erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi, shuningdek, jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi [17, 194-b.]. Sh. Hamroyeva esa "odam savdosining obyekt – bu ijtimoiy munosabatlarning majmuasi bo'lib, ular odamning hayoti, erkinligi, shon-sharafi va qadr-qimmati kabi qadriyatlar, sog'lig'i va ijtimoiy yaxlitligiga asoslanadi" [18, 63-b.], deb ta'kidlaydi. F.Taxirovning ta'biricha, jinoyatning obyekt jabrlangan shaxslarning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi [19, 132-b.]. Xuddi shunday fikr R. Kabulov va Z.Gulyamov [20, 5-b.] tomonidan ham ilgari surilgan. M.A. Rajabova "shaxsning ozodligi bilan bog'liq sha'ni jinoyat obyekt" [21, 93-b.], deb baholaydi. V.S. Komissarova "odam savdosi jinoyatining obyekt bu – shaxsning jismoniy erkinligi va boshqa ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishiga bo'lgan huquqlari" [22, 10-b.], deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, hozirgi kunda ushbu turdagi jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilishga oid fikrlarni o'rganib chiqib, shuni aytish mumkinki, odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilishda nafaqat shaxsning ozodligi, balki sha'ni va qadr-qimmati ham poymol bo'ladi.

So'nggi yillarda chop etilayotgan adabiyotlarda odam savdosining obyekt doirasi kengaytirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, shu yuzasidan olib borilgan tadqiqotda "odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish jinoyatining obyektini o'xshash jinoyatlardan farqlar ekanmiz, ushbu jinoyatning obyektini shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmati va erkin mehnat qilish huquqidir" [23, 25-b.], deb qayd etilgan. Aslida, erkin mehnat qilish huquqi umumiy holatda



erkinlik va ozodlik tushunchalarining tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin. Ammo biz umumiy obyekt haqida emas, balki bevosita obyekt, ya'ni qilmish orqali bevosita tajovuz qilinadigan yoki shunday xavf ostida qoladigan munosabat haqida fikr bildirar ekanmiz, erkin mehnat qilish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarni ham odam savdosining bevosita asosiy objekti doirasida deb qabul qilishimiz lozim. Zero, Xalqaro mehnat tashkilotining Zo'raki va majburiy mehnatning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi tavsiyalarida shaxsni azoblovchi va og'ir ahvolga solib qo'yuvchi har qanday mehnat turi taqiqlangan [24, 130-b.]. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida ham fuqarolarning mehnat qilish huquqi muhofaza qilinadi va unga ko'ra har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega. Mazkur turdagi jinoyat ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda jabrlanuvchilar o'zlari xohlamagan tarzdagi mehnat sharoitlari va mehnat turlariga majburiy ravishda jalb qilinadilar va bevosita mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlardan mahrum etiladilar.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, odam savdosining bevosita asosiy objekti shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmati va erkin mehnat qilish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

A.S. Yakubovning ko'p obyektli jinoyatlarda bevosita obyektning farqi u asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarga bo'linishi [25, 97-b.], degan fikrlariga qo'shilgan holda, odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish ko'p obyektligi bilan jamiyat xavfsizligiga tahdid soladi, deb aytish mumkin.

Ayrim hollarda odamlar shahvoniy maqsadda yoki majburiy mehnatda ekspluatatsiya qilish uchun yollanadi va ular bevosita ekspluatatsiya vaqtida turli jismoniy qiynoqlarga duch keladilar, natijada ularning sog'lig'iga ham zarar yetadi. M.Qodirovning fikricha, "odamlardan foydalanish uchun ularni yollashning objekti nafaqat shaxsning ozodligi, balki qadr-qimmati va sog'lig'i ham hisoblanadi" [26, 102-104-b.]. Aldangan qizlar tuban ishlar bilan shug'ullanishdan bosh tortsalar, bir necha kun ovqatsiz, qamab qo'yilib, do'pposlanib, qiynoqqa solingan [27, 95-b.], deb ta'kidlaydi M.A. Rajabova. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, aytish mumkinki, shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilinayotgan vaqtda jabrlanuvchini urish, do'pposlash, qiynash, nomusga tegish oqibatida ularning sog'lig'iga zarar yetkazilishi mumkin. Shu sababdan ham shaxsning hayoti yoki sog'lig'i daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar odam savdosining bevosita qo'shimcha objekti sifatida baholanadi.

Keyingi tahlil qilinadigan masala ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilishning objekti masalasi hisoblanadi.

Mazkur jinoyatning bevosita obyektini tahlil qilar ekanmiz, olimlar o'rtasida turli yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz. M.H. Rustamboyevning qayd etishicha, jinoyatning bevosita objekti ayol kishining erki va qadr-qimmati, uning erga tegish yoki eri bilan birga yashashda davom etish masalasini mustaqil hal qilish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi [28, 193-b.]. M. Kadirov mazkur jinoyatning obyektini nikoh munosabatlarida ayolning ozodligi [26, 105-b.], A. Otajonov

esa “ayol kishining erki va qadr-qimmatini, uning eri bilan birga yashashda davom etish masalasini mustaqil hal qilish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar” [16, 182-b.], deb baholaydi.

Bizningcha, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilishning bevosita asosiy obyekti ayolning nikohga oid munosabatlarda erkinligi hamda ozodligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, bevosita qo‘shimcha obyekti esa ayolning hayoti yoki sog‘lig‘i daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyat sifatidagi odam o‘g‘irlashning obyektiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tadqiqotchilar tomonidan ushbu jinoyatning bevosita obyekti turlicha ta‘riflanadi. Masalan, R.E. Oganyan odam o‘g‘irlashning bevosita obyekti sifatida uning erkinligi va shaxsiy daxlsizligini e‘tirof etadi [29, 99-b.]. Shunga o‘xshash fikrni R.A. Adelxanyan ham ilgari suradi. Erkinlik deganda, u iroda, kenglik, o‘z ixtiyoricha ish ko‘rish imkoniyati; erksizlik, o‘zganing hukmiga tobelikning yo‘qligi; insonning o‘z manfaatlarini, maqsadlariga muvofiq harakat qilish va yo‘l tanlashni amalga oshirish qobiliyatini tushunadi. Daxlsizlik esa mazkur muallif fikriga ko‘ra, muayyan shaxs yoki predmetga daxl etishi mumkin bo‘lmagan narsadir [30, 29-b.]. M.H. Rustamboyevning ta‘kidlashicha, odam o‘g‘irlashning bevosita obyekti odamlarning istagan yerda bo‘lish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi [31, 195-b.].

F. Taxirov ham ushbu jinoyatning obyekti yuzasidan shunday fikr bildirgan, ya‘ni “mazkur jinoyatning obyekti odamning erkinligi, istagan yerida bo‘lish erkinligi hisoblanadi” [19, 135-b.]. M. Kadirov ham odam o‘g‘irlashning obyekti “o‘g‘irlangan yoki olib qochilgan shaxsning shaxsiy ozodligidir” [26, 106-b.], deb baholaydi. S. Yuldashev o‘z tadqiqotlarida odam o‘g‘irlashning bevosita obyekti insonning jismoniy erkinligidir [32, 117-b.], degan xulosaga keladi. E.F. Pobegaylo odam o‘g‘irlash jinoyatining obyektiga insonning shaxsiy (jismoniy) ozodligini kiritadi [33, 112-b.]. S.V. Borodin fikriga ko‘ra, odam o‘g‘irlashning obyekti insonning bir joydan boshqa joyga erkin ko‘chib yurish va o‘zi turgan joyini belgilashga bo‘lgan qonuniy huquqidir [34, 398-b.]. M. Lisov odam o‘g‘irlashning obyekti sifatida uning jismoniy erkinligi va uni zo‘rlilik ishlatib tutqunlikka olish hamda unga buyum singari egalik qilish mumkin emasligini nazarda tutuvchi insoniy qadr-qimmatini ko‘rsatadi [35, 41-b.]. V.I. Zubkova insonning shaxsiy erkinligini odam o‘g‘irlash jinoyatining bevosita obyekti deb hisoblaydi [36, 214-b.].

Insonning jismoniy erkinligiga yetkazilgan ziyonning hajmi ham uning jismoniy erkinlikni istisno qiladigan holatda saqlanish muddati, ham saqlash sharoitlari bilan belgilanadi. O‘g‘irlangan odam sovuq va zax yerto‘lada, qo‘llariga kishan solingan holatda bir necha oy saqlangan hollar ma‘lum.

Maxsus, turdosh va bevosita obyektlar bilan bir qatorda (“vertikal” tasniflash) asosiy, qo‘shimcha va fakultativ obyektlar (“gorizontal” tasniflash) ham ajratiladi. Ayni holda gap bir vaqtning o‘zida jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ikki yoki undan ortiq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi qilmishlar haqida boradi. Bunda mazkur tajovuz obyektlaridan biri asosiy muqarrar, qolganlari esa qo‘shimcha



muqarrar yoki fakultativ nomuqarrar obyektlar hisoblanadi. Asosiy obyektga ziyon, birinchi navbatda, yetkaziladi, u doim yuzada turadi va jinoyatning maxsus obyekti tarkibiga kiradi [37, 100-b.].

F. Taxirov va M. Kadirovning ishlarida odam o'ldirishning bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlari ajratilmagan. M.H. Rustamboyev "mazkur jinoiy qilmishning fakultativ obyekti jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i bo'lishi mumkin" [31, 195-b.], deb qayd etadi. Ammo bu fikr ham, bizningcha, noto'g'ri. Chunki tahlil qilinayotgan jinoyatda jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'ini ta'minlovchi munosabatlar bevosita qo'shimcha obyekt hisoblanadi. Zero, qo'shimcha obyekt JK 137-moddasi bilan bilan qo'riqlanadigan asosiy obyekt (inson ozodligi)ga tajovuz qilish natijasida xavf ostida qoladigan ijtimoiy munosabat turidir. Mazkur masala yuzasidan M.H. Rustamboyevning JK Umumiy qismi bo'yicha ishlarida to'g'ri xulosa berilgan. Masalan, "JK 104-moddasining 3-qismi "d" bandida nazarda tutilgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish natijasida o'lim kelib chiqishi jinoyatida tajovuz ikkita obyektga qaratiladi: shaxsning sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabat va shaxsning hayotini ta'minlovchi ijtimoiy munosabat. Bu obyektlarga nisbatan tajovuzning bo'lmasligi moddaning aynan shu qismi va shu bandidagi jinoyat tarkibini istisno qiladi. Jabrlanuvchining o'limi, bir tomondan, qo'shimcha obyekt, ikkinchi tomondan, aybdorning ijtimoiy xavfli qilmishi oqibati hisoblanadi" [38, 143-b.]. JK 137-moddasi uchinchi qismi "b" bandida esa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan qilmish, boshqacha aytganda, asosiy obyektga zarar yetkazish orqali qo'shimcha obyektga zarar yetkazish holati uchun, ya'ni odam o'g'irlash orqali o'g'irlangan shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Shunday qilib, bu yerda gap bir vaqtning o'zida ikki obyektga tajovuz qiluvchi qilmishlar haqida boradi. Bu turdagi qilmishlarga javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'g'irlashni ham kiritish mumkin. Masalan, javobgarlikni og'irlashtiruvchi va javobgarlikni og'irlashtiruvchi alohida holatlarda odam o'g'irlashning qo'shimcha obyekti inson hayoti, sog'lig'i va xavfsizligi hisoblanadi (JK 137-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari).

Odam o'g'irlash jinoyatini sodir etishda hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatilgan holda, insonning jismoniy erkinligi qilmishning bevosita obyekti bo'lib qoladi. Shaxsning jismoniy daxlsizligi esa jinoyatning fakultativ obyekti bo'ladi. Bunday vaziyatda shaxsning harakatlari faqat JK 137-moddasining birinchi qismi bilan (javobgarlikni og'irlashtiruvchi boshqa holatlar bo'lmagan holda) kvalifikatsiya qilinadi.

Bizning fikrimizcha, jabrlanuvchi jinoyat-huquqiy tushunchasi jinoiy tajovuz obyekti bilan birga tahlil qilinishi lozim. Bunda mutaxassislarining inson umuman jinoyatning, shu jumladan, uning jismoniy erkinligiga tajovuz qiluvchi qilmishlarning ham predmeti bo'lishi mumkin emas [39, 208-b.], degan fikriga qo'shilish, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Yuqoridagi mualliflarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, ularning o'rtasida yetarlicha farqlar mavjud. Eng asosiysi, konseptual yondashuvda. Ya'ni ayrim mualliflar (F. Taxirov, M. Kadirov va boshqalar) "qadriyatlar va manfaatlar – jinoyat

obyekti”, aksariyati (masalan, M.H. Rustamboyev) esa “ijtimoiy munosabatlar – jinoyat obyekti” degan konsepsiyani ilgari surishgan.

Biz jinoyatning obyekti – bu ijtimoiy munosabat degan konsepsiyaga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlamoqchimizki, odam o‘g‘irlashning bevosita asosiy obyekti shaxsning o‘zi istagan joyda bo‘la olish, o‘zi istagan shaklda yashash huquqini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Bevosita qo‘shimcha obyekti esa o‘g‘irlangan shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘ini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar, bevosita fakultativ obyekti boshqa shaxslarning hayoti yoki sog‘lig‘ini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Bu shaxslar o‘g‘irlangan shaxsning yaqin qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari bo‘lishi mumkin.

Zo‘rlilik ishlatib, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishning obyekti masalasiga to‘xtalsak.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida nazarda tutilgan zo‘rlilik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyatining xususiyati shu bilan belgilanadiki, u har doim shaxsning bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurish erkinligiga daxl etadi. Shaxsning bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurish erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlangan: O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir. Bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurish erkinligini: 1) insonning makonda o‘zi tanlagan yo‘nalishda bir joydan boshqa joyga ko‘chish yoki bunday ko‘chishdan o‘zini tiyish to‘g‘risidagi qarorni moneliqsiz qabul qilish; 2) mazkur qarorni moneliqsiz amalga oshirish imkoniyati sifatida tushunish, bizningcha, o‘rinli bo‘ladi.

Yashash va bo‘lib turish joyini tanlash erkinligi bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurish erkinligining tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘rinishdagi shaxsiy erkinlikni shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar to‘g‘risidagi normalar alohida qo‘riqlamaydi. Agar u jinoyat obyekti sifatida ko‘rsatilsa, ayni hol mazkur erkinlikka tajovuz mavjud bo‘lmagan taqdirda (jinoyat tarkibining elementi yo‘qligi tufayli), jinoiy ta‘qib qilish imkoniyatini istisno etadi. Ayni vaqtda shaxs o‘zi erkin tanlagan yashash yoki bo‘lib turish joyining makonida ham ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin [40, 63-b.].

Odam o‘g‘irlash jinoyatidan farqli o‘laroq, zo‘rlilik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishda jabrlanuvchi o‘zi yashab turgan muhitdan olib chiqib ketilmaydi, o‘g‘irlanmaydi, balki shu yerning o‘zida qoladi, lekin uning bir joydan boshqa joyga ko‘chish imkoniyati cheklanadi [41, 27-b.].

B.A. Blinderning fikriga ko‘ra, mazkur jinoyatning obyekti “shaxsning ozodligi, erkin harakat qilishidir” [42, 93-b.]. F.Taxirov “mazkur jinoyatning obyekti jabrlanuvchi shaxsning shaxsiy ozodligi” [19, 136-b.], deb hisoblaydi. M.Kadirov ham bu masalada xuddi shunday fikr bildiradi: “jinoyat obyekti shaxsning shaxsiy ozodligi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlari hisoblanadi” [26, 108-b.]. M.H. Rustamboyevning qayd etishicha, mazkur jinoyatning bevosita obyekti jabrlangan shaxsning shaxsiy (jismoniy) erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ammo



F. Taxirov, M. Kadirov, M.H. Rustamboyev “shaxsiy ozodlik” va “jismoniy erkinlik” tushunchalariga ta’rif berishmagan. S. Yuldashev, R.D. Sharapov, A.V. Klimentkonning ishlarida “jismoniy erkinlik” tushunchasiga ta’rif berilgan, ya’ni “Shaxsning jismoniy erkinligi – bu insonning bir joydan boshqa joyga erkin ko’chib yurish va o’zining bo’lib turish joyini belgilash, shuningdek, o’z niyatlari va manfaatlariga muvofiq faol ish ko’rish imkoniyatini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir” [32, 117-b.; 43, 194-b.; 44, 12-b.].

JK sharhlarida “tahlil etilayotgan jinoyat zo’rlilik ishlatib g’ayriqonuniy tarzda shaxsning bir joydan ikkinchi joyga erkin ko’chishiga qarshilik ko’rsatishdir” [45, 170-b.], deb qayd etiladi. Bundan jinoyat obyekti shaxsning bir joydan ikkinchi joyga erkin ko’chib yurishini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zo’rlilik ishlatib g’ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishning bevosita asosiy obyekti shaxsning bir joydan ikkinchi joyga ko’chib yurishi, uning erkin yashashini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Bevosita qo’shimcha obyekt esa shaxsning hayoti yoki sog’lig’i daxlsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur tadqiqotda qayd etilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, quyidagi natijalarga e’tibor qaratish mumkin:

1. Jinoyat huquqi nazariyasi tahlili asosida jinoyat obyektni quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

a) jinoyatning umumiy obyekti – qonun bilan qo’riqlanadigan, mazkur ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning mohiyatini aks ettiradigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi;

b) jinoyatning maxsus obyekti – JK Maxsus qismining ayni bir bo’limiga kiritilgan moddalarda javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlar tajovuz qiladigan bir turdagi ijtimoiy munosabatlar majmuyi;

d) jinoyatning turdosh obyekti – JK Maxsus qismining ayni bir bobiga kiritilgan moddalarda javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlar tajovuz qiladigan bir turdagi ijtimoiy munosabatlar majmuyi;

e) jinoyatning bevosita obyekti – bir yoki bir nechta jinoyatlar tajovuz qiladigan ijtimoiy munosabatlar turi.

2. Tadqiqot natijasida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar umumiy, maxsus va turdosh obyektlari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

– shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning umumiy obyekti shaxsni jinoyat-huquqiy muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi;

– shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar maxsus obyekti shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi;

– shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti shaxsning ozodligi, erkinligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

3. Tadqiqot natijasida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlarning bevosita obyekti odam savdosi, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to’sqinlik qilish, odam o’g’irlash, zo’rlilik ishlatib g’ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyat tarkiblari bo’yicha alohida tadqiq qilindi va tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

Xulosalar

Mamlakatimizda shaxsga qarshi jinoyatlar umumiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu toifadagi jinoyatlar tarkibi, shu jumladan, mazkur jinoyatlarning obyekti tahlili bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy masalalar so'nggi yillarda nashr etilgan yuridik adabiyotlarda zarur darajada tizimli va to'liq yoritilmagan. Shu sababli mazkur maqolada tadqiq etilgan masala tergov va sud amaliyotidagi shaxs ozodligiga qarshi jinoyat tarkibi belgilarini aniqlash, bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, ularni o'xshash va boshqa jinoyat tarkiblaridan farqlash bilan bog'liq bir qator muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Mezhdunarodnyye akty o pravakh cheloveka [International human rights instruments]. Collection of documents. Moscow, 1998, p. 56.
2. Spasovich V.D. Uchebnik ugovnogo prava [Textbook of criminal law]. A common part. St. Petersburg, 1863, p. 94.
3. Kistyakovsky A.F. Elementary General Law Textbook with a detailed presentation of the beginnings of Russian criminal law. A common part. Kyiv, 1882, p. 310.
4. Kolokolov G.V. Criminal Law: Lectures. Moscow, 1896, p. 234.
5. Tagantsev N.S. Russian criminal law. Lectures. Part General. Moscow, 1994, vol. 1, pp. 31–32.
6. Sergievsky N.D. Russian criminal law: Lecture guide. A common part. St. Petersburg, 1915, p. 400.
7. Nikiforov B.S. The object of the crime according to Soviet criminal law. Moscow, 1960, p. 132.
8. Martynenko N.E. Abduction of a person: concept, composition analysis and qualification issues. Lecture. Moscow, 1998, p. 10.
9. Krasikov A.N. Crimes against the human right to life. Saratov, 1999, p. 66.
10. Snakhova M.R. Criminal-legal protection of personal freedom of citizens. PhD thesis. Moscow, 2000, p. 21.
11. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2021, vol. 1, p. 112.
12. Zdravomyslov B.V., Karaulov V.F. et al. Criminal law of the Russian Federation. Special part. Ed. B.V. Zdravomyslov. Moscow, Jurist Publ., 2000, p. 18.
13. Yakubov A.S. Preconditions for Criminal Law Reform in the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 1994, p. 47.
14. Afinogenov S.V., Ermakova L.D. et al. Criminal law of the Russian Federation. A common part. Ed. B.V. Zdravomyslov. Moscow, Jurist Publ., 1999, pp. 112–113.
15. Vetrov N.I. Criminal law. A common part. Moscow, Unity, 1999, p. 114.



16. Kabulov R., Otajonov A. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Special part: Textbook. Ed. Sh.T. Ikramov. Tashkent, MIA Academy of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 173.

17. Hamrayeva Sh. Odam savdosi – xalqaro muammo [Human trafficking is an international problem]. Tashkent, Fan, 2011, p. 63.

18. Rustambayev M.H., Taxiroy F., Erkaxodjayev A.K. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Ed. Y.M. Karaketov. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000, p. 132.

19. Kabulov R., Gulyamov Z. et al. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollashni tergov va kvalifikatsiya qilish [Investigate and qualify the recruitment of people for use]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 5.

20. Rajabova. M.A. Traffik jinoyati (odam savdosi) qonunchilik va javobgarlik. Jinoiy jazolarni liberallashtirish: ilmiy-amaliy tahlil [Trafficking crime (trafficking in human beings) legislation and liability. Liberalization of criminal penalties: a scientific and practical analysis]. Tashkent, Adolat, 2005, p. 93.

21. Russian criminal law. Special part. Ed. V.S. Komissarov. St. Petersburg, Peter Publ., 2008, p. 103.

22. Rustamboyev M.H., Abdurasulova Q.R., Niyozova S.S., Qurbonov N.B. Odam savdosiga qarshi kurash muammolari [Problems of combating human trafficking]. Ed. O.G. Zokirova. Tashkent, TSIL, 2011, p. 25.

23. Xalqaro Mehnat Tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari [The main conventions and recommendations of the International Labor Organization]. Tashkent, National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights, 2008, p. 130.

24. Yakubov A.S. Theoretical problems of forming the legal basis for the doctrine of crime. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1996, p. 97.

25. Kadyrov M.M. Criminal law of the Republic of Uzbekistan. Special part: Textbook. Tashkent, Adolat Publ., 1997, pp. 102–104.

26. Rajabova M.A. Jinoiy jazolarni liberallashtirish: ilmiy va amaliy tahlil. Tashkent, Adolat Publ., 2005, p. 95.

27. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. Crimes against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, ILM ZIYO, 2011, vol. 3, p. 193.

28. Oganyan R.E. Kidnapping: historical and legal issues. Moscow, 2001, p. 99.

29. Adelhanyan R.A. Kidnapping investigation. Moscow, 2003, p. 29.

30. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. Crimes against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, ILM ZIYO, 2011, vol. 3, p. 195.

31. Yuldashev S. Odam o'g'irlash jinoyatining obyekti [The object of the crime of kidnapping]. *Bulletin of the Tashkent State Legal Institute: scientific and theoretical publication*, 2011, no. 1, Tashkent, TSIL, 2011, p. 117.

32. Criminal law of Russia. Special Part. Ed. G.N. Borzenkova, V.S. Komisarova. Moscow, 1998, p. 112.

33. Criminal law. Part General. Part Special. Ed. L.D. Gaukhmana, L.M. Kolodkina, S.V. Maksimov. Moscow, 1998, p. 345.
34. Lysov M. Responsibility for illegal imprisonment, kidnapping and hostage-taking. *Russian Justice*, 1994, no. 5, p. 41.
35. Tatsiy V.Ya. Object and subject of crime in Soviet criminal law. Kharkov, 1988, p. 100.
36. Frolov E.A. Controversial issues of the general doctrine of the object of the crime. Collection of works. Sverdlovsk, 1969, iss. 10, p. 208.
37. Kovalev A.P. Illegal imprisonment. Moscow, INFRA - M Publ. 2003, p. 63.
38. Belyaeva N., Oreshkina T. Qualification of crimes infringing on the personal freedom of a person. *Legality*, 1994, no. 4, p. 27.
39. Sharapov R.D. Physical violence in criminal law. St. Petersburg, 2001, p. 194.
40. Klimenko A.V. Criminal-legal characteristics of kidnapping. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004, p. 12.
41. Ahmedov B.A., Blinder B.A., Zakutsky S.G. et al. Sovet jinoyat huquqi [Soviet criminal law]. Special part. Ed. B.A. Akhmedov. Tashkent, Uqituvchi Publ., 1983, p. 93.
42. Sharapov R.D. Physical violence in criminal law. St. Petersburg, 2001, p. 194.
43. Klimenko A.V. Criminal-legal characteristics of kidnapping. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004, p. 12.
44. G'ulomov Z.X., Zufarov R.A., Kabulov R. et al. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 1997, p. 170.

UDC: 343(045)(575.1)

JINOIY JAVOBGARLIKNI LIBERALLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Altiyev Razzoq Saidovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-5613-4532
e-mail: razzoq.lawyer@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida muallif O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari mazmunini tahlil qilib, davlatning liberallashtirish siyosatida dekriminalizatsiyaning ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek, dekriminalizatsiyaning jinoiy-huquqiy tahlili hamda dekriminalizatsiya va uning turlarini keng nazariy o'rgangan. Maqolada jinoyat qonuniga kiritilgan rag'batlantiruvchi institutlar, xususan, yarashuv instituti va uning joriy qilinishi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: liberallashtirish, jinoyat qonuni, jazo, dekriminalizatsiya, depenalizatsiya, yarashuv, sud-huquq islohotlari.

ПОНЯТИЕ И ВАЖНОСТЬ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Алтиев Раззок Саидович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В рамках данной статьи автор проанализировал содержание судебных реформ, проведенных в годы независимости в уголовном законодательстве Республики Узбекистан, подчеркнув важность декриминализации в политике либерализации государства. Автор также провел широкий теоретический уголовно-правовой анализ декриминализации и ее видов. В статье в основном анализируются статистические данные по стимулирующим институтам,

включенным в уголовное законодательство, в частности института примирения и его реализации.

Ключевые слова: либерализация, уголовное право, наказание, декриминализация, примирение, судебная реформа.

THE CONCEPT AND IMPORTANCE OF LIBERALIZATION OF CRIMINAL RESPONSIBILITY

Altiyev Razzoq Saidovich,

Assistant Professor of the Department of
Criminal Law, Criminology and Anti-corruption of
Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. Within the framework of this article, the author analyzed the content of judicial reforms carried out in the years of independence in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, emphasizing the importance of decriminalization in the policy of liberalization of the state. The author also conducted a broad theoretical analysis of the criminal law analysis of decriminalization and its types. The article mainly analyzes statistical data on stimulating institutions included in criminal legislation, in particular, the institute of reconciliation and its implementation.

Keywords: liberalization, criminal law, punishment, decriminalization, reconciliation, judicial reform.

Davlatning jinoiy-huquqiy siyosatini liberallashtirishga mustaqillikning ilk kunlaridan e'tibor berila boshlandi. Uning asosiy maqsadi sifatida adolat va insonparvarlik prinsiplarini ta'minlash, jinoiy jazo tizimidagi jazolash funksiyalarini toraytirish yo'lidan borish belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasida jinoiy-huquqiy siyosat liberallashtirish yo'lida bo'lib, liberallashtirish mohiyatini to'g'ri anglash uchun, avvalo, uning genezisini tahlil qilish lozim.

Liberallashtirish (lotincha "liberalis" ozod, ozodlik ma'nolarini anglatadi) falsafiy va ijtimoiy-siyosiy yo'nalish bo'lib, inson huquqlari va shaxsiy erkinliklarining mustaqilligini anglatadi [1].

Liberalizm falsafa institutlaridan biri bo'lib, ozodlik yoki erkinlik tushunchalari turli tarixiy davrlarda turlicha talqin qilib kelingan. Liberalizmning pirovard maqsadi nafaqat insoniy ezgulik, balki insoniy ratsionalizmga xizmat qiluvchi g'oyalarni ham qamrab olgan. Liberalizm oqilona aql-idrokka ega bo'lgan odamlar muammolarini tan olish va ularni hal qilish qobiliyatiga egaligida ifodalanadi. Shuningdek, inson ahvolini muntazam yaxshilashga erishishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Konservatizm liberalizmga qarshi ta'limot bo'lib, u oddiygina qilib aytganda, maqom, vakolatlarning bir shaxs yoki bir guruh shaxslar qo'lida yig'ilishi, saqlab qolishni targ'ib qiladi. Takomillashtirish yoki taraqqiyot deb hisoblagan narsani



izlagan liberalizm, albatta, mavjud tartibni o'zgartirishni xohlaydi va shunga xizmat qiluvchi g'oyalarni o'zida birlashtiradi.

Liberal ta'limotning ilk tarafdori faylasuf Jon Lokk (1689-y.) bo'lgan. Shu davrdan boshlab klassik liberalizm ta'limoti rivojlangan.

Klassik liberalizm nafaqat insoniy ratsionallik, balki shaxsiy mulk va mulkka bo'lgan huquq, tabiiy huquqlar muhimligi, hukumatga konstitutsiyaviy cheklovlar zarurligi hamda shaxsning har qanday tashqi cheklov va tajovuzdan ozodligini ta'kidlaydi.

XX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Fransiya va keyinchalik Amerika Qo'shma Shtatlarida farovonlik davlati vujudga keldi va hukumat ijtimoiy islohotlar ko'lamini kengaytira boshladi.

O'sha davrlarda AQShda eng kam ish haqi miqdori belgilanishi, progressiv soliqqa tortish tizimi va ijtimoiy xavfsizlik dasturlari qabul qilinishi liberalizm siyosatining mahsuli bo'lib, ushbu institutlar keyinchalik boshqa davlatlarga ham tatbiq qilingan.

Insoniyat tarixida jamiyat rivojlanishi, huquqiy ong va madaniyatning ommalashuvi natijasida jinoiy-huquqiy siyosat liberallasuvi jadallashdi. Jinoiy-huquqiy siyosat liberallasuviga turlicha ta'rif keltirilgan bo'lsa-da, umumiy mazmun jinoiy ta'qib, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari, ularni ijro etish jarayoni hamda jinoyatchilikning oldini olish faoliyati odillik va insonparvarlik prinsiplari, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga monand bo'lishi lozimligini anglatadi.

Boshqacha qilib aytganda, jinoiy-huquqiy siyosatda liberallashtirish – bu jinoyat qonunchiligi, jinoiy ta'qib, dastlabki tergov, sud muhokamasi jarayonida jazo tayinlash (uning turlarini tanlash) va jazoni ijro etish shartlari, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish jarayonlari bilan ifodalangan amaldagi jinoyat qonunchiligini insonparvarlashtirish jarayonidir.

Sud-huquq tizimini isloh qilishning muhim vazifalaridan biri jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

Ushbu islohotlar jinoyat kodeksiga jinoiy jazolarni liberallashtirish masalalariga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunlarda o'z aksini topdi.

Sud-huquq islohotlari davrida 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi.

Mazkur qonun olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni liberallashtirishning natijasi bo'lib, uni amaldagi Jinoyat kodeksining isloh qilinishi deb baholash ham mumkin.

Ushbu qonun bilan amaldagi Jinoyat kodeksining 105 ta moddasiga jinoiy jazolarning liberallashtirilishi yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topdi.

Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlar tasnifi tubdan o'zgardi. Xususan, og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va

uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi; jinoiy jazo tizimidan ayrim jazo turlari chiqarilib, jazo tizimi yanada liberallashtirildi; jinoyat qonunchiligida yarashuv instituti joriy etildi; jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun belgilangan muddatlar qisqartirildi.

Qonunga asosan, Jinoyat kodeksining 13 ta moddasiga muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi [2].

2007-yil 11-iyulda "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish borasida tub burilish yasadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boisi ilgari sud-huquq sohasida bunday islohot olib borilmagan. Buni xorijlik mutaxassislar ham ko'p bora e'tirof etmoqda.

2008-yil 10-apreldagi "Jarima tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etish tartibini takomillashtirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun jarima jazosining ijrosini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad jinoyat sodir etgan shaxsga, iloji boricha, jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llashdan iboratdir [3].

Shuningdek, 2010-yil 18-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonunga asosan, Jinoyat kodeksi yangi norma, ya'ni aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganda, jazo tayinlash (571-modda) bo'yicha alohida qoidalar belgilandi. Aynan jinoyat huquqidagi yengilroq jazo tayinlash institutini takomillashtirish va liberallashtirish natijasida 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni asosida jinoyat kodeksi "Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash" haqidagi 572-modda bilan to'ldirildi. Natijada aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha tayinlanadigan jazo muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoida amalga kiritildi.

2012-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga asosan, Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar mamlakatimizda sud-huquq sohasi hamda jinoiy jazo tizimini liberallashtirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarning izchil davomi bo'ldi.

Ushbu qonun bilan kiritilgan o'zgartirishlar, eng avvalo, iqtisodiyot sohasidagi idoralar xodimlari javobgarligini liberallashtirishda o'z ifodasini topdi. Jinoyat kodeksiga sudlanganlikning olib tashlanishini liberallashtirish bo'yicha yangi norma va shuningdek, ancha, ko'p, ko'p bo'lmagan, juda ko'p miqdor tushunchalariga o'zgartirishlar kiritildi.

2014-yil 4-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Jinoyat kodeksining 62-moddasi "Sud qamoqda saqlangan shaxsga jarima tayinlashda



qamoqda saqlangan har bir kunini eng kam oylik ish haqining ikkidan bir qismiga tenglashtirib hisoblaydi”, degan mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirildi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining maxsus qismiga “1811-modda. Qasddan bankrotlikka olib kelish” degan yangi norma kiritildi. Jinoyat protsessual kodeksiga yangi norma – 2421-modda: “Uy qamog'i” ehtiyot chorasi protsessual majburlov chorasi sifatida kiritildi. Mazkur norma ham inson huquq va manfaatlarini dastlabki tergov bosqichida himoya qilishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. “Uy qamog'i” gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganda, uning yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olgan holda, qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo'llanishi belgilandi.

Yuqorida qayd qilingan liberallashtirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar nafaqat jinoiy jazolar, balki mamlakatimizdagi jinoyat qonunchiligi, sud-huquq sohasi liberallashtirilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu keltirilgan liberallashtirish jarayonlarini yanada kengroq tahlil qilamiz.

Mustaqillik yillarida mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinar ekan, mamlakatimiz rahbari quyidagilarga alohida e'tibor berdi: “... jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 % ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi”. Darhaqiqat, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2001-yil 29-avgustda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi tubdan qayta ko'rib chiqilib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar doirasi birmuncha kengaytirildi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiritilgan bo'lsa, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiritildi. Hozirgi vaqtda JKda 587 ta jinoyat tarkibi mavjud bo'lib, shulardan 259 tasi (44,1 %) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, 151 tasi (33,7 %) uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, 114 tasi (19,4 %) og'ir jinoyatlar va 63 tasi (10,7 %) o'ta og'ir jinoyatlardir. Ushbu ma'lumotlar ayrim qilmishlarning kriminalizatsiya yoki dekriminalizatsiya qilinishi bilan o'zgarib turadi [4].

“Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi... Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi”. O'tkazilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan moddiy zarar qoplanganligi uchun aybdor shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Jinoiy-huquqiy siyosat natijasida, eng avvalo, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insonparvarlik kabi tamoyillarining kuchayishi va amalda qo'llanishi ta'minlanmoqda. Dastlab 2001-yil holatiga Jinoyat kodeksidagi 173-, 180-, 181-, 198-, 233-moddalari bo'yicha, keyinchalik ushbu ro'yxat qayta ko'rib chiqilib, 2021-yil holatiga Jinoyat kodeksining 132-, 173-, 175-, 233-moddalarida yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi to'g'risida rag'batlantiruvchi bandlar bilan to'ldirildi.

Shuningdek, 2001-yil holatiga JK 167-, 168-, 170-moddalarida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi [5, 40-b], 2021-yil holatiga 167-, 168-, 180-, 181-, 1811-, 1852-, 1924-, 192¹¹-moddalarida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi to'g'risida rag'batlantiruvchi bandlar kiritilgan liberallashtirish siyosati mahsulidir.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida aks ettirilgan prinsiplarga muvofiq, jinoiy jazo tizimi va sud ishlarini yuritish bosqichma-bosqich liberallashtirildi, shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini tayinlash imkoniyati kengaytirildi. Shuningdek, qamoq jazosi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda bugungi kunda ozodlikdan mahrum qilinganlar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni qayd etmoqda. 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, AQShda har yuz ming odamdan 639 nafari, Rossiyada 340 nafari, Turkiyada 335 nafari, Belarusda 343 nafari, O'zbekistonda 68 nafari jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tamoqda. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistondagi jinoyat-huquqiy siyosat qanchalik darajada liberal ekanini ko'rsatib turibdi.

Jinoyat qonunchiligi va jazo tizimini liberallashtirish voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun choralar belgilashda insonparvarlik, rahmdillik ruhi bilan sug'orilgan normalarning ustuvorligini belgilab qo'ydi. Bu qatlam ichida voyaga yetmaganlar alohida diqqat-e'tiborni talab qiladi. Odatda, voyaga yetmagan shaxs hayotiy tajribaga ega bo'lmaganligi, ongi va irodasi to'liq shakllanmaganligi sababli ishonuvchan, boshqalar ta'siriga beriluvchan bo'ladi. Shu sababli ham liberallashtirish asosida kiritilgan normalarda voyaga yetmaganlar tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etilsa, ularga nisbatan ozodlikdan mahrum etish jazosini qo'llamaslik belgilab qo'yilgan. Hozirda voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning qo'llanishi voyaga yetmagan mahkumlarning umumiy soniga nisbatan 2001-yilda 39,7 %dan 2005-yilda 27,6 %gacha qisqarishiga olib keldi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 72 %dan ko'prog'iga sudlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo chorasi tayinlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son qonuniga asosan, JK 50-moddasi to'rtinchi qism bilan to'ldirilib, liberallashtirish asosida kiritilgan normalarga ko'ra, ayollar, o'n sakkiz



yoshga to'lmay jinoyat sodir etgan va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga biron-bir jinoyat uchun beriladigan jazo qonunda nazarda tutiladigan eng yuqori muddatning to'rtidan uch qismidan oshmasligi lozimligi belgilangan. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli qonuni bilan "ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollar hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas"ligi mazmuniga o'zgartirilgan.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da jinoiy-huquqiy siyosat liberallashtirilishi davom ettirilib, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish orqali ayrim qilmishlarni jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish belgilandi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jinoyat protsessual qonunchiligiga "Habeas Corpus" instituti joriy etilib, 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazildi. Ushbu vakolatning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida "Habeas Corpus" institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini berdi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umum e'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalar talablari amalga oshirildi.

Habeas Corpus ("Habeas Corpus Act") deb nom olgan qonun 1679-yil 26-mayda Angliyada qabul qilingan bo'lib [7], insoniyat tarixida o'zboshimchalik bilan hibsga olishni cheklagan birinchi hujjat deb tan olinadi. Unda "Hech bir shaxs, erkin fuqaro sud qarorisiz ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, mulkidan mahrum qilinishi, qonundan tashqari deb e'lon qilinishi, quvg'in qilinishi mumkin emas" deyilgan. "Habeas Corpus Act"da belgilangan tartibga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sud huzuriga darhol olib kelinishi va shaxsni qamoqqa olishga sudning roziligini olish uchun qonuniy asoslantirilgan tegishli hujjatlar taqdim qilinishi kerak va bunday asoslar bo'lmaganda, shaxs "Xabeas korpus" buyrug'ini chiqarish yo'li bilan ozod qilinadi.

"Habeas Corpus" inson huquqlari cheklangan har bir holatda, bunday cheklash ma'muriy tartibda amalga oshirilganda ham qo'llanilishi mumkin.

Angliyada protsessual majburlov choralari qo'llashga olib keladigan va sudyaning ruxsatisiz o'tkaziladigan harakatlardan eng jiddiysi politsiya qamog'i hisoblanadi (uni, shuningdek, gumon qilinuvchini qisqa muddatga ushlash deb atash mumkin). Politsiya qamog'ining tartibi shundaki, uning ustidan sud nazorati "Habeas Corpus" instituti doirasidan tashqarida amalga oshiriladi, politsiya kimnidir sudning ruxsatisiz qamoqqa olganda, bunda ushlab turishning umumiy muddati 36 soatdan oshmaydi va bundan so'ng u sud tartibida uzaytiriladi.

Mamlakatimizda ehtiyot chorasi sifatida qamoq qo'llashni sudlarga olib berish xususidagi qonun o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi

insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Darhaqiqat, mazkur qonun doirasi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va jabrlanuvchilarning huquqlari jinoiy javobgarlikni liberallashtirish nuqtayi nazaridan qayta bayon qilindi. Jinoyat qonunchiligidan mol-mulkni musodara qilish jazosining chiqarilganligi munosabati bilan JPKning qator moddalari qayta shakllantirildi.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanadigan bo'ldi.

Jinoyatlar tergov qilinayotganda, tergov muddati uch oydan ortiq davom etmasligi va uni Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va unga tenglashtirilgan prokuror tomonidan besh oygacha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari yetti oygacha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori to'qqiz oygacha, alohida hollarda bir yilgacha uzaytirishga vakolatli qilib belgilandi. Dastlabki tergov muddatini uzaytirish vakolati tuman (shahar) prokurorlari vakolatlaridan chiqarildi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli qonuniga asosan, dastlabki tergov muddati yetti oy qilib belgilandi [8].

Yarashuv institutining joriy etilishi bilan Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobiga yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritishning tartibi belgilandi. Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish jinoyat protsessida ish yuritishning maxsus qisqartirilgan tartibi bo'lib, birinchidan, yarashuvchilik munosabati bilan ko'rib chiqiladigan jinoyat ishlariga JKning 66¹-moddasida nazar tutilgan jinoyatlar kiradi. Ikkinchidan, yarashuv to'g'risidagi jinoyat ishlari jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'z ichiga oladi. Uchinchidan, surishtiruv va dastlabki tergovda quyidagilar isbotlanishi shart: a) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ilgari sudlangan yoki sudlanmaganligi; b) jinoyat, haqiqatan ham, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan sodir etilganligi; d) ixtiyoriy ravishda yetkazilgan barcha turdagi zararning qoplanganligi; e) jabrlanuvchi jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsni kechirib, yarashuv to'g'risida ariza berganligi. To'rtinchidan, sud muhokamasiga ish materiali, tergovchi tomonidan chiqarilgan va prokuror rozilik bildirgan yarashuv to'g'risidagi qarori, jabrlanuvchining yarashuv to'g'risidagi arizasi topshiriladi. Taraflarning sud maslahatxonasiga kiringunga qadar yarashganligigina ishni tugatishga asos bo'lishi belgilandi.

Yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritishda qisqa muddatda taraflar o'rtasidagi nizo bartaraf etiladi va ortiqcha sarf-xarajatning oldi olinadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinib, "sudlangan" degan tamg'adan forig' qilinadi. Jabrlanuvchining qonuniy talablarini bajarish bilan adolatning naqadar muqaddasligi va qonun ustuvorligi tan olinadi [9]. Surishtiruv va dastlabki tergov organlari mashaqqatli mehnatdan xalos bo'ladi.

Yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritish qator ortiqcha chiqimlarning oldini olish, fuqarolarning faqat shaxsiy manfaatlariga daxl qiladigan holatlarning davlat



nazoratidan chiqarilishi, sudlanganlik holatlari kamayishi, ish yakunidan kelib chiqadigan taraflarning odil sudlovga putur yetkazmaydigan xohish-istaklarining inobatga olinishiga olib kelmoqda. Yarashuv institutining samarali faoliyat ko'rsatib kelayotganining yana bir ko'rsatkichi – hozirda sud qarorlarining ijro etilmasdan qolishi kabi noxush holatlar sud tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarlar tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashi evaziga kamaymoqda.

O'zbekistonda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish tizimli amalga oshirib kelingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-aprel kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonuniga jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazo muddati yoki miqdori JK maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerakligi to'g'risida qoida kiritildi [10].

O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 18-may kunidagi qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganda, jazo tayinlash tartibini ko'zda tutadigan 57¹-modda bilan to'ldirildi. Mazkur qonunga muvofiq, jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda, ya'ni aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish va Jinoyat Kodeksi 56-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, jazo muddati yoki miqdori Jinoyat Kodeksi maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerakligi qayd etildi.

Aytib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi qo'shimchalari jinoyat qonunchiligini yanada insonparvarlashtirish manfaatlariga xizmat qiladi.

2009-yil 3-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, u yarashuv institutini qo'llash imkoni bo'lgan jinoyatlar tarkiblari ro'yxatini yanada kengaytirdi. Agar yarashuv institutini jinoyat-protsessual qonunchilikda ilk bor joriy qilgan 2001-yilgi qonunda mazkur institutni 27 ta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat tarkiblari bo'yicha qo'llash imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, 2005-yil 31-dekabr va 2007-yil 27-avgust kungi qonunlar bilan jinoiy javobgarlikdan ozod bo'lish imkoni mavjud bo'lgan jinoyat tarkibi ro'yxati 42 ta jinoyat tarkibigacha kengaydi. Ko'rinib turibdiki, yarashuv institutini qo'llash imkoni bo'lgan jinoyatlar tarkibi ro'yxati asta-sekinlik bilan kengayib borgan. Mazkur yondashuv o'zini to'liq oqladi. Masalan, sud amaliyoti dalolat bermoqdaki, yarashuv instituti munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar ichida jinoyatlar retsidivi holati deyarli uchramaydi. Bu yarashuv institutining yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Ushbu holat tufayli O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, u yarashuv institutini qo'llash imkoniyati bor jinoyat tarkiblari ro'yxatini yana 11 tarkibga kengaytirdi (jami 53 ta).

Jabrlanuvchi bilan yarashuv to'g'risidagi alohida toifadagi ishlarni yuritish tartibining joriy etilishi jinoyat protsessi qonunchiligini jinoiy javobgarlikni liberallashtirish va protsessual munosabatlarni dispozitiv tartibga solish g'oyalari evaziga takomillashtirishda muhim qadam bo'ldi.

O'ylaymizki, so'nggi yillarida O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari o'z samarasini ko'rsatib, jamiyatimiz liberallashtirish siyosatining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglagan holda, inson huquqlari ustuvorligi amalda to'liq ta'minlanadi.

REFERENCES

1. Liberalism. Available at: <http://archive.fo/lfRaI/>.
2. Abdurasulova Q., Toshpulatov A. Moddiy va protsessual huquqning o'zaro aloqadorligi (jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi misolida) [Interrelation of substantive and procedural law (in the example of criminal law and criminal-procedural law)]. Yurist axborotnomasi – Lawyer newsletter, 2021, vol. 2, no. 6, pp. 43–50.
3. Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2008, no. 14-15, Article 94. Available at: <https://lex.uz/docs/-1334750/>.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. Doctrine of crime. 2nd ed., supplemented and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, 441 p.
5. Aliyev R.S. Istoriya razvitiya zakonodatel'nykh aktov, predusmatrivayushchikh ugolovnuyu otvetstvennost' za moshennichestvo v ugolovnom zakonodatel'stve Respubliki Uzbekistan (retrospektivnyy analiz) [The history of the development of legislative acts providing for criminal liability for fraud in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan (retrospective analysis)]. Journal of Legal Studies, 2019, vol. 4, no. 4, p. 40.
6. Yakubov A.S., Kabulov R. et al. Ugolovnoye pravo [Criminal Law]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 48.
7. Blackstone W. Commentaries on the Laws of England: A facsimile of the first edition of 1765–1769. Chicago, University of Chicago Press. 1979, vol. 3. pp. 129–137.
8. Turg'unboev E.O. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Album schemes. Instructional manual. Responsible ed. Q.R. Aburasulova. Tashkent, TSIL, 2013, 129 p.
9. Tulaganova G.Z. Ushlab turilganlar va mahbuslarning huquqlari [Rights of detainees and prisoners]. P. 124.
10. Altiev R. Subjective Signs of the Crime of Fraudulent Looting of Property in the Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. Psychology and Education Journal, 2021, vol. 58, no. 1. DOI: 10.17762/pae.v58i1.865/.

UDC: 343.37(045)(575.1)

JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARGA DOIR JINOYAT QONUNCHILIGI NORMALARINING RIVOJLANISHI

Muslimov Ikrom Tuxtamuratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0003-4475-0555
e-mail: Ikramjon.muslimov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda, jazoni yengillashtiruvchi holatlarga doir qonunchilik normalarining rivojlanishi, shuningdek, u haqdagi olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqotlari, ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlar atroflicha bayon qilingan. Shu bilan birga, jazoni yengillashtiruvchi holatlar turlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi muammoli jihatlar aniqlandi va ketma-ket tavsiflab berildi. JK 55-moddasining birinchi qismida mustahkamlangan ro'yxatda bo'lg'usi jazoni yumshatish bilan bir qatorda, hatto JKning 64–67-moddalari qoidalaridan birini qo'llab, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkonini beradigan alohida jazoni yengillashtiruvchi holatlar nazarda tutilganligi asosli ravishda tahlil qilingan. Jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil etilib, bu borada asosli nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jazo, jinoyat qonunchiligi, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫХ НОРМ ОБ ОБСТОЯТЕЛЬСТВАХ, СМЯГЧАЮЩИХ НАКАЗАНИЕ

Муслимов Икром Тухтамуратович,
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В статье широко используются логический, системный, сравнительно-правовой методы исследования. В частности, в первую очередь были описаны развитие правовых норм, касающихся смягчающих обстоятельств, а также научные взгляды и исследования ученых по этому

поводу, подробно исследованы сходства и различия между ними. При этом был проведен сравнительный анализ с видами смягчающих обстоятельств, выявлены и последовательно охарактеризованы их проблемные стороны. Также обоснованно проанализировано, что в части первой статьи 55 Уголовного кодекса, помимо смягчающих будущее наказание обстоятельств, предусмотрены особые смягчающие обстоятельства, позволяющие освободить от уголовной ответственности путем применения одного из положений статей 64–67 Уголовного кодекса. При этом были проанализированы существующие теории и научные исследования по данному направлению уголовного права, а также выработаны обоснованные теоретические предложения и рекомендации.

Ключевые слова: преступление, наказание, уголовное законодательство, обстоятельства, смягчающие наказание, обстоятельства, отягчающие наказание.

IMPROVEMENT OF CRIMINAL LEGAL REGULATIONS ON CIRCUMSTANCES OF MITIGATION OF PUNISHMENT

Muslimov Ikram Tukhtamuratovich,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law

Abstract. Logical, systematic, and comparative legal methods of research were used in this article. In particular, first of all, the development of legal norms related to mitigating circumstances was described, as well as the scientific views and research of scientists about it, and the similarities and differences between them were described in detail. At the same time, a comparative analysis was made with the types of mitigating circumstances; their problematic aspects were identified and described sequentially. Also, it was reasonably analyzed that in the first part of Article 55 of the Criminal Code, in addition to mitigating future punishment, special mitigating circumstances allow exemption from criminal liability by applying one of the provisions of Articles 64–67 of the Criminal Code. At the same time, the doctrine of criminal law and existing scientific research were analyzed, and reasonable theoretical proposals and recommendations were developed in this regard.

Keywords: crime, punishment, criminal law, circumstances mitigating punishment, circumstances aggravating punishment.

Kirish

Jinoiy jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tadqiq qilishda bu sohada qonunchilikning rivojlanish jarayonini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda eng qadimiy manbalardan biri hisoblangan “Avesto”da jinoyat va jazo masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Unga ko’ra, kohinlar tomonidan jinoyat ishini ko’rish va adolatli hal etishdan oldin jinoyatchi yoki qonun buzuvchining



aybi, aybdorlik shakli va darajasi, shu jumladan, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, aybdorning qaysi dinga mansubligi va boshqa holatlar o'rganilgan [1, 28-b.]. "Avesto"ni tahlil qilish asosida quyidagilar jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida tan olinganligini kuzatish mumkin: 1) jinoyat sodir etgan shaxs (gunohkor)ga chora ko'rish *(masalan, axloqqa qarshi jinoyatlar, jumladan, zinokorlik va bachchavozlik jinoyatlarini sodir etgan shaxslar hech qanday dalil-isbotsiz va guvohsiz hamda kohin (sudya)ning hukmisiz o'ldirilgan. Gunohkorni o'ldirgan kimsaning gardanida eng katta aybi bo'lsa ham, u afv etilgan)*; 2) ko'p bolali oila a'zolari va homilador ayollar tomonidan jinoyat sodir etish; 3) ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etish; 4) kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish; 5) birinchi marotaba jinoyat sodir etish; 6) o'z aybini ixtiyoriy ravishda tan olish va hokazo.

Jinoyat qonunchiligi rivojlanishining keyingi bosqichi mamlakatimizda islom dinining kirib kelishi va shariat qoidalarining o'rnatilishi bilan bog'liq. Jumladan, shariatda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar aniq ko'rsatilgan hamda ular jazo tayinlashda inobatga olingan. Shariatda jazoni yengillashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiritilgan: 1) aybni bo'yniga olish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish. Ushbu holatlar, ayniqsa, ta'zir turi qo'llanishi ko'zda tutilgan jinoyatlarda jazodan umuman ozod qilishga asos bo'la olgan; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'lash; 3) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan qaramlik sababli jinoyat sodir qilish; 4) jabrlanuvchining aybdorni kechirishi; 5) voyaga yetmaganlar va ayollar tomonidan jinoyat sodir etish *(masalan, ular tomonidan jinoyat sodir etilganda, o'lim jazosi qo'llanmagan, ayollarga nisbatan to'la tovonning yarim miqdori undirilgan)*; 6) qullar tomonidan jinoyat sodir etilishi; 7) podshoh "had" jazosi qo'llanishi nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jazolanmagan, qasos jazosi esa doimiy ravishda tovonga almashtirilgan [2, 88-89-b.]; 8) jinoyat tamom bo'lmagan bo'lsa *(masalan, qaroqchilar yo'l to'sayotganlarida hali molni olmay va hech kimni o'ldirmay turib qo'lga tushsalar, ular to'lov qilgunlariga qadar qamab qo'yilgan [3, 535-b.] yoki o'g'ri narsani xonadan olib chiqib ketmay turib qo'lga tushsa, qo'li kesilmagan [3, 525-b.])*; 9) jinoyat sodir etilganiga ko'p vaqt bo'lganligi *(masalan, guvohlar biron kishining 10 dirham va undan ortiq bahodagi mulkni o'g'irlagani haqida guvohlik berib, aybdorning nomini aytib, ko'rsatma bersalar, jinoyat sodir etilganiga uzoq muddat o'tgan bo'lsa, o'g'riga had jazosi qo'llanmay, balki undan moddiy zararni to'lash talab qilingan)*.

Jinoyat qonunchiligi rivojlanishining keyingi bosqichi mamlakatimizda jinoyat qonunchiligining alohida kodifikatsiya qilinishi bilan bog'liq. Ya'ni 1926-yilda O'zbekistonda birinchi JK qabul qilinguniga qadar jinoyat ishlarini yuritish shariat qoidalari asosida amalga oshirilgan.

1926-yilgi JKning 48-bandiga ko'ra, sud ijtimoiy himoya choralari (jazolar)ni qo'llashda jinoyatchi hamda sodir etilgan jinoyatning xavflilik darajasi va xususiyati, jinoyatchining shaxsi, jinoyat motivi, shuningdek, ushbu jinoyatning sodir etilish joyi va vaqti bo'yicha aslida jamiyat uchun qanchalik xavfliligini hisobga oladi [4, 10-b.]. Ko'rib turganimizdek, 1926-yilgi JK bo'yicha jazo tayinlashning umumiy qoidalarida sudlarga jazo tayinlashda jazo (javobgarlik)ni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish sharti

to'g'ridan to'g'ri majburiy tarzda bayon etilgan. Ammo JKda qayd etilgan umumiy qoidalar asosida sudlar tomonidan ushbu masalalar inobatga olingan.

Ushbu JKning 50-bandiga ko'ra, jinoyat: 1) garchi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqsa ham, sovet hokimiyati, huquqiy tartibot, himoya qiluvchi yoki boshqa shaxslarni tajovuzlardan himoya qilish maqsadida; 2) ishchi yoki mehnat krestyanlari tomonidan; 3) birinchi marotaba; 4) shaxsiy manfaatlarga ko'ra yoki har qanday asossiz sabablarga ko'ra; 5) qo'rqitish, majburlash, xizmati yoki moddiy qaramlik ta'siri ostida; 6) kuchli ruhiy hayajonlanish ta'siri; 7) ochlik, zarurchilik va umuman shaxsiy yoki oilaviy mushkul ahvolda; 8) soddalik, ongsizlik yoki tasodifiy holatda; 9) voyaga yetmagan shaxs yoki homilador tomonidan jinoyat sodir etish holatlarida sudlar nisbatan yengilroq jazo choralarini ko'rishlari mumkin.

Jinoyat qonunchiligi rivojlanishining keyingi bosqichi 1959-yilda yangi JK qabul qilinishi bilan bog'liq. Ushbu JKning 37-moddasiga muvofiq, jazo tayinlashda sud huquqiy ongga amal qilib, sodir etilgan jinoyat xususiyati va jamoat uchun xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi hamda ishning javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarini e'tiborga oladi. Bunda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar sud tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinishi 1959-yilgi JKda ham belgilanganligiga e'tibor qaratish mumkin. Yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati esa JKning 38-moddasida sanalgan. Ya'ni jazo tayinlashda quyidagilar javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi: 1) aybdor o'zi qilgan jinoyatning zararli oqibatlarining oldini olish yoki yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki yetkazilgan zararni bartaraf etishi; 2) shaxsiy yoki oilaviy hayotida og'ir holatlarni boshdan kechirgan vaqtda yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish; 3) qo'rqitish yoki majburlash yoxud xizmati, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaramligi ta'siri ostida jinoyat sodir etish; 4) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida ro'y bergan kuchli ruhiy hayajonlanish ta'siri ostida jinoyat sodir etish; 5) garchi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqsa ham, jamiyat uchun xavfli tajovuzdan himoya qilish vaqtida jinoyat sodir etish; 6) voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi; 7) homilador ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi; 8) chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki aybini bo'yniga olib kelish [5, 32–33-b.].

Material va metodlar

Ushbu maqolada tadqiq etishning mantiqiy, tizimlilik, tarixiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Mazkur metodlardan foydalanib, muayyan natijaga erishilgan va jinoyat huquqi umumiy qismiga oid nazariy hamda ilmiy jihatdan asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

1959-yilgi JKda joriy etilgan eng muhim yangiliklardan biri sudlarga qonunda belgilanmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat sifatida topish huquqining berilishi bo'ldi. Ushbu qoida 1994-yilgi JKda ham saqlab qolindi.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar bilan bog'liq holda, jinoyat qonunchiligi rivojlanishining keyingi bosqichi 1994-yilda yangi JK qabul qilinishi bilan bog'liq. Ushbu JKda jazoni yengillashtiruvchi holatlar turlariga yanada aniqlik kiritilib, ularni qo'llash shartlari mufassal tartibga solingan. JKning 55-moddasiga ko'ra, quyidagi



holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi: 1) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish; 3) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish; 4) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish; 5) jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish; 6) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish; 7) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi; 8) homilador ayolning jinoyat sodir etishi; 9) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish. Ushbu JKda yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda, jazo tayinlash shartlariga kiritilgan yangiliklardan biri yengillashtiruvchi holat JK maxsus qismining normasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu jinoyat uchun jazo tayinlashda hisobga olinmasligiga doir talabning kiritilishi bo'ldi.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar har doim jazo tayinlash qoidalari bilan bog'langaniga qaramay, mamlakatimiz qonunchiligi rivojlanish jarayonining turli bosqichlarida ularning vazifasi bir xil bo'lmagan. Masalan, ilgari amalda bo'lgan 1959-yilgi O'zbekiston SSRning JKda ular javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb nomlangan, 1994-yilgi JKda esa ular jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb belgilangan. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning maqsadi, vazifasi, o'rni va huquqiy mazmunini belgilashda bunday noizchilik ilmiy abadiyotlarda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Sho'ro davrida jazoni yengillashtiruvchi holatlarning huquqiy mazmunini belgilash to'g'risidagi masala yuzasidan bir nechta nuqtayi nazar ilgari surilgan. Bir guruh mualliflar jazoni yengillashtiruvchi holatlar ayb darajasiga ta'sir ko'rsatadi [6, 370-b.], deb hisoblagan. Boshqa mualliflar tahlil qilinayotgan holatlarning mohiyati sud tomonidan jazo tayinlashda uni yumshatishdan iborat [7, 93-b.], deb ta'kidlagan. Yana bir guruh mualliflar bunday holatlarni aybni yengillashtiruvchi holatlar deb nomlash to'g'ri bo'ladi [8, 20–39-b.], deb hisoblagan. Ko'rib chiqilayotgan holatlarni qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini yumshatadigan holatlar deb nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi [9, 27–b.], degan nuqtayi nazar ham ilgari surilgan. Qolgan mualliflar qonun chiqaruvchining tahlil qilinayotgan holatlarni javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb nomlash zarurligi haqidagi fikriga qo'shilganlar. Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchining nuqtayi nazari to'g'ri bo'lgan. Yuqorida sanab chiqilgan nuqtayi nazarlar, bizningcha, jazoni yengillashtiruvchi holatlarning ahamiyatini kamaytirib ko'rsatadi va ularning asl mazmunini chegaralaydi.

Tahlil qilinayotgan holatlarning o'rni va ahamiyati shundan iboratki, ish bo'yicha bir qancha jazoni yengillashtiruvchi holatlar aniqlanganligi jinoyat ishi reabilitatsiya qilmaydigan asosga ko'ra tugatilishi va aybdor javobgarlikdan ozod qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin [10, 136–137-b.]. Bir qator mualliflar

qonun chiqaruvchini qo'llab-quvvatlaydilar va JKda yengillashtiruvchi holatlarning o'zgartirilgan talqiniga qo'shiladilar. Masalan, M.N. Stanovskiy jinoyat qonunida ko'rib chiqilayotgan holatlarning jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb nomlangani sudlarga ularni aynan jazo tayinlashda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lishini ko'rsatadi [11, 168-b.]. V. Tkachenkoning fikricha, jazoni yengillashtiruvchi holatlar jazoni pasaytiradi, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjudligi esa moddaning sanksiyasi doirasida og'irroq jazo tayinlanishini nazarda tutadi [12, 10–11-b.].

L.L. Kruglikov fikriga ko'ra, jazoni yengillashtiruvchi holatlar – bu, eng avvalo, javobgarlikni individuallashtirish vositalaridir. Olim tahlil qilinayotgan holatlar nomi o'zgartirilishi bilan bir qatorda, qo'llanish doirasi kengaytirilishi hisobiga ularning funksiyalari ko'payishi ham yuz berganini ta'kidlaydi [13, 82-b.].

Xulosalar

Bizning nazarimizda, JK 55-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mazmuni va maqsadlarini aniqlash uchun JK 8-moddasining jinoiy javobgarlik prinsipi sifatidagi odillik mazmunini yorituvchi qoidasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, ayb va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan. Bizningcha, sodir etilgan jinoyat holatlari uning ijtimoiy xavflilik darajasi va aybdorning shaxsi, shu jumladan, JKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar bilan ham tavsiflanadi.

Sud amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jazoni yengillashtiruvchi holatlar aniqlangani tarbiyaviy tusdagi majburiy choralarni qo'llash, jazoni o'tashni kechiktirish va shartli hukm qilish uchun keltiriladigan asosiy dalillardan biri hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik o'zgartirilishi mumkin emas, chunki u yo kelib chiqadi, yo kelib chiqmaydi, degan nuqtayi nazar, bizningcha, to'g'ridir.

Umumiy qoidaga binoan, jazoni yengillashtiruvchi holatlar sudlar tomonidan jazo turi va hajmini tanlash yoki jinoiy-huquqiy tusdagi choralarni qo'llamaslikda hisobga olinadi. Ularning mavjudligi jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan shartli jazo tayinlash, ya'ni shartli hukm qilish imkoniyatini belgilaydi; yo'qligi esa jazoni og'irlashtiruvchi holatlar bilan bir qatorda mazkur yo'lni tanlashni qiyinlashtiradi.

Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, JK 55-moddasining birinchi qismida mustahkamlangan ro'yxatda bo'lg'usi jazoni yumshatish bilan bir qatorda, hatto JK 64–67-moddalari qoidalaridan birini qo'llab, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkonini beradigan alohida jazoni yengillashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan. Jumladan, JKning 66-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ammo JKning 64–67-moddalarida nazarda tutilgan holatlar butunlay boshqa institut – javobgarlikdan ozod qilish instituti hisoblanadi.



Bizningcha, JKda tahlil qilinayotgan holatlarni jazoni yengillashtiruvchi holatlar degan nomda qoldirish to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillarga asosan, jazoni yengillashtiruvchi holatlar bo'yicha jinoyat qonunchiligi rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish taklif etiladi:

1-bosqich – eng qadimgi davrdan VIII asrgacha bo'lgan davr. Ushbu davrda mamlakatimizda “Avesto” qoidalari tatbiq etilgan;

2-bosqich – VIII asrdan 1926-yilgacha bo'lgan davr. Ushbu davrda mamlakatimizda jazoni yengillashtiruvchi holatlar shariat qoidalari asosida tartibga solingan;

3-bosqich – 1926–1959-yillar. Ushbu davrda mamlakatimizda jinoyat qonunchiligi kodifikatsiya qilindi, javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati qonunchilik bilan aniq belgilab qo'yildi;

4-bosqich – 1960–1994-yillar. Jinoyat qonunchiligida javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati yangilandi; ularga nisbatan qat'iy ro'yxat tamoyilidan voz kechildi; sudlarga qonunda belgilanmagan holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida topish huquqi berildi;

5-bosqich – 1994-yildan hozirga qadar bo'lgan davr. Mazkur davrda jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati kengaytirildi va qayta ko'rib chiqildi, ularni qo'llash shartlariga qo'shimcha aniqlashtiruvchi mexanizmlar kiritildi.

REFERENCES

1. Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov S., Ollamov Ya. “Avesto” va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni [“Avesta” and its place in human development]. Urganch, Khorezm, 2002, p. 28.
2. Rajabova M. Shariatda jinoyat va jazo [Crime and punishment in Sharia]. Tashkent, Adolat Publ., 1996, pp. 88–89.
3. Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya [Hidaya]. Kazan, 1886, vol. 2, p. 535.
4. Ugolovnyy kodeks Uzbekskoy SSR [Criminal code of the Uzbek SSR]. Samarkand, NKYu UzSSR, 1926, p. 10.
5. O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Uzbek SSR]. The fifth call was accepted at the second session of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR on May 21, 1959. Tashkent, Uzbekistan, 1977, pp. 32–33.
6. Alekseev N.S., Shargorodskiy M.D. Sovetskoye ugolovnoye pravo [Soviet criminal law]. Common part. Moscow, 1952, p. 370.
7. Kuznesova N.F., Kurinov B.A. Otyagchayushchiye i smyagchayushchiye obstoyatel'stva, uchityvayemye pri opredelenii mery nakazaniya. Primeneniye nakazaniya po sovetskomu ugolovnomu pravu [Aggravating and mitigating circumstances taken into account when determining the measure of punishment. Application of punishment under Soviet criminal law]. Moscow, 1958, p. 93.
8. Shargorodskiy M.D. Vina i nakazaniye v sovetskom ugolovnom prave [Guilt and punishment in Soviet criminal law]. Moscow, 1945, pp. 13, 20–39.

9. Karpes I.I. Otyagchayushchiye i smyagchayushchiye obstoyatel'stva v ugolovnom prave [Aggravating and mitigating circumstances in criminal law]. Moscow, 1959, p. 27.

10. Kurs sovetskogo ugolovnogo prava [The course of Soviet criminal law]. Vol. 3, pp. 136–137.

11. Stanovskiy M.N. Naznachenije nakazaniya [Appointment of punishment]. St. Petersburg, 1999, p. 168.

12. Tkachenko V. Obshchiye nachala naznacheniya nakazaniya [General principles of sentencing]. *Russian Justice*, 1997, no. 1, pp. 10–11.

13. Kruglikov L.L. Genezis pravovoy prirody obstoyatel'stv dela, smyagchayusshchikh i otyagchayushchikh otvetstvennost' [The genesis of the legal nature of the circumstances of the case, mitigating and aggravating responsibility]. Problems of the theory of criminal law. Selected Papers (1982-1999). Yaroslavl, 1999, p. 82.



UDC: 343.37(045)(575.1)

XORIJIY DAVLATLARDA AXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING JINOIY-HUQUQIY MASALALARI

Tosheva Maftuna Anvar qizi,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
akademiyasi o'qituvchisi,
TDYU tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0003-4475-0888
e-mail: maftunaaslonova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chet el qonunchiligida jamoat axloqiga qarshi jinoyatlar haqida so'z yuritilgan. Fohishalik, pornografik mahsulotlar savdosi, tarix va madaniyat yodgorliklarini vayron qilish hamda shikastlash, dafn etilgan joylarni tahqirlash bilan bog'liq jinoyatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamoat axloqiga qarshi jinoyatlar, fohishalik, pornografik mahsulotlarning noqonuniy aylanishi, tarix va madaniyat yodgorliklarini yo'q qilish yoki buzish, murdani jarohatlash yoki odamlarning dafn etilgan joylari.

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ МОРАЛИ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Тошева Мафтуна Анвар кизи,
преподаватель Академии
трудовых и общественных отношений,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены преступления против общественной нравственности в зарубежном законодательстве. Особое внимание уделено преступлениям, связанным с проституцией, оборотом порнографической продукции, уничтожением и повреждением памятников истории и культуры, а также осквернением мест захоронения людей.

Ключевые слова: преступления против общественной нравственности, проституция, незаконный оборот порнографической продукции, уничтожение или повреждение памятников истории и культуры, надругательство над трупом или местами захоронения людей.

CRIMINAL ISSUES OF CRIMES AGAINST MORALITY IN FOREIGN COUNTRIES

Tosheva Maftuna Anvar kizi,

Teacher of the Academy of
Labor and Social Relations,

Doctoral Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article deals with crimes against public morality in foreign legislation. Particular attention is paid to crimes related to prostitution, trafficking in pornographic products, destruction and damage to historical and cultural monuments as well as desecration of burial sites.*

Keywords: *crimes against public morality, prostitution, illegal circulation of pornographic products, destruction or damage of historical and cultural monuments, desecration of a corpse or burial places of people.*

Jamiyatning ijtimoiy tashkil etilishi va rivojlanishi tarixida, xoh quldorlik davri bo'lsin, xoh feodal, burjua yoki zamonaviy postindustrial jamiyat bo'lishidan qat'i nazar, ma'naviyat, madaniyat va axloqni rivojlantirish masalalari hamisha muhim o'rin tutgan.

Xorijiy qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ma'lum darajada jamoat axloqini jinoiy-huquqiy himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan normalar mavjud.

Jamiyatning axloqiy asoslari va an'alariga qarshi jinoyatlar tizimiga oid ko'pchilik Yevropa davlatlari qonunchiligi XIX asrda shakllangan. Axloqqa qarshi jinoyatlarni tizimlashtirishda ikkita asosiy yondashuv belgilandi: ba'zi mamlakatlarda axloqqa qarshi tajovuzlar jinsiy erkinlik va daxlsizlikka qarshi jinoyatlar (zo'rlash, fohishalikka jalb qilish, voyaga yetmaganlar bilan yaqin munosabatlarga kirishish va boshqalar) sifatida qarala boshlangan bo'lsa, boshqa davlatlarda jamoat axloqi boshqa himoyalangan munosabatlar (konstitutsiyaviy, oilaviy, shaxsiy va boshqalar) bilan birgalikda himoya qilindi. Shuni aytishimiz mumkinki, Fransiya jinoyat huquqida jamoat axloqiga qarshi jinoyatlar jamoat tinchligiga qarshi jinoyatlar turlariga kiradi. Vengriya Jinoyat kodeksining "Axloqqa qarshi jinoyatlar" bo'limida nafaqat pornografik asarlarni tarqatish, fohishalik bilan shug'ullanish, qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy aloqa kiritilgan, balki nomusga tegish ham axloqqa qarshi jinoyat sifatida keltirilgan [1].

Bugungi davrga kelib, chet el qonunchiligida axloqqa qarshi jinoyatlar tizimi katta o'zgarishlarga uchradi. Shu munosabat bilan ko'plab jinoyat kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Amerika jamiyatida boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi gomoseksualizm va fohishalik yoshlar va oila ideallarini buzadi, shuningdek, OITS va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar tarqalishiga sabab bo'ladi, deb qaraladi. Muxoliflar pornografiya



nomusga tegish va boshqa jinsiy jinoyatlarni rag'batlantiradi, degan fikrni ilgari suradi. Spirtli ichimliklar, giyohvandlik va qimor o'yinlari shaxsning halokati va o'zini o'ldirish darajasining oshishi, shuningdek, oilaning beqarorligi hamda buzilishiga sabab bo'ladi. Giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar iste'mol qilishni qonuniy ravishda taqiqlash, noqonuniy qimor o'yinlarini tashkil etish, fohishalik va pornografiyani taqiqlash tarafdorlari ushbu "illatlar" qashshoqlik, davlatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy inqirozning sabablaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning tarqalishi, qator olimlarning fikricha, jamiyatning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin [2, 287-b.].

Bugungi kunda bir qancha davlatlarda qonuniy fohishalik bilan shug'ullanish qonunchilik bilan taqiqlanmagan. Avstriya, Buyuk Britaniya, Braziliya, Gretsiya, Daniya, Isroil, Irlandiya, Italiya, Kanada, Latviya, Livan, Niderlandiya, Peru, Turkiya, Urugvay, Finlandiya, Chili, Shveysariya, Ekvador va Avstraliya hamda Meksikaning ba'zi shtatlari, AQShning Nevada va Rod-Aylend shtatlari shular jumlasidan. Shuningdek, yuqorida keltirilgan davlatlarda fohishalik bilan shug'ullanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur davlatlar jinoyat qonunchiligi ushbu faoliyat bilan bog'liq normativ talablarni buzganlik uchun jazolarni nazarda tutadi. Bunday huquqbuzarliklarga quyidagilar kiradi: jamoat joyida, maktab, bog'cha, ta'lim markazlari, diniy muassasa hududiga yaqin hududda jinsiy aloqa xizmatlarini taklif qilish, voyaga yetmagan bolalarning oldida jinsiy aloqa qilish kabilar qonunchilikda o'rnatilgan talablarni buzish hisoblanadi.

Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarning aksariyatida fohishaxonalar saqlash, intim xizmatlarni ommaviy taklif qilish qonuniy ravishda taqiqlangan. Fohishaxonalar ochishga faqat Germaniya, Livan, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Turkiya, Shveysariya, Nevada shtatining (AQSh) ayrim okruglarida ruxsat berilgan. Fransiyada bunday uylar 1939-yil, Italiyada esa 1958-yilda taqiqlangan. Bir qator mamlakatlarda fohishalarni ro'yxatga olish va ularning faoliyatini tartibga solish tizimi mavjud. Avstriya, Germaniya, Latviya, Livan, Niderlandiya shunday davlatlar sirasiga kiradi.

Umuman olganda, hozirgi zamonaviy dunyoda jinoyat huquqining fohishalikka ta'sirini shartli ravishda uch turga bo'lishimiz mumkin:

1) fohishalikka liberal munosabatda bo'ladigan davlatlar, ya'ni qonuniy fohishalik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan davlatlar (Germaniya, Latviya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Shveysariya, Nevada (AQSh)). Mazkur davlatlarning jinoyat qonunchiligini batafsil yoritadigan bo'lsak, fohishalikning ayrim turlari jinoyat turidan chiqarilgan hamda qonuniy fohishalikka ruxsat berilgan. Qo'shmachilikka ancha yengil jazo chorasini nazarda tutuvchi javobgarlik belgilangan. Bunda huquqbuzarlik jinoiy foyda olish yoki zo'rlash, majburlash belgilarini saqlamagan bo'lishi kerak.

Shuni ham aytish kerakki, o'ta xavfli holatlarda, ya'ni bolalarni fohishalikka jalb qilish yoki odam savdosi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi jazo turlari nazarda tutilgan;

2) fohishalikka o'rtacha-repressiv munosabatda bo'ladigan davlatlar. Bu kabi davlatlarda jinoyat huquqida fohishalik uchun javobgarlik o'rnatuvchi normalar mavjud, lekin ular og'ir jazolarni ko'zlovchi normalar hisoblanmaydi (Rossiya, Yaponiya, Isroil, Fransiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Armaniston,

Ozarbayjon). Mazkur davlatlarda fohishalik bilan shug'ullanish qonunga zid faoliyat hisoblanadi va bu kabi faoliyatlarga nisbatan jazo choralarini ko'zlovchi normalar o'rnatilgan;

3) qattiq-repressiv tartibda munosabatda bo'ladigan davlatlar, ya'ni mazkur davlatlar jinoyat qonunchiligida og'ir jazolarni nazarda tutuvchi normalar o'rnatilgan (bularga musulmon huquqiga asoslangan davlatlarni misol keltirish mumkin: Afg'oniston, Pokiston, Qatar, BAA, Saudiya Arabistoni, shuningdek, Xitoy hamda Malayziyaning ba'zi shtatlari). Ushbu mamlakatlar jinoyat qonunida jinsiy xizmat ko'rsatish bilan birga, uni tashkil qilish ham jinoyat sanaladi. Aytishimiz mumkinki, yuqoridagi davlatlarning aksariyati jinoyat qonunchiligi shariat normalariga asoslangan bo'lib, bu kabi jinoyatlar zino deb ataladi. Shariat normalariga asoslangan davlatlarda fohishalik bilan shug'ullangan ayol yoki erkak, agar uning oilasi bo'lsa, o'lim jazosi bilan javobgarlikka tortiladi. Agar oilali bo'lmagan taqdirda, 100 darra urish bilan javobgarlikka tortiladi. Bugungi kunda ushbu norma arxaik norma hisoblanib, qattiq tartibdagi isbot (ikkita erkak yoki to'rtta ayol guvoh) talab qilgani uchun amalda qo'llanilmaydi [3, 101–102-b].

Afsuski, kundalik hayotda jinsiy munosabatlar sohasida u yoki bu darajada ijtimoiy axloqni "buzuvchi" salbiy unsurlar tobora ko'payib borishi bilan shakllanayotgan noqulay vaziyatni qayd etmaslik mumkin emas. Masalan, 2018-yilda Polshaning Madmind Studio studiyasidan Agony (Agony) nomli shaxsiy kompyuter uchun chiqarilgan o'yin ochiq zo'ravonlik sahnalarini ko'rsatib, pornografiya va umuman, buzuvchi jinsiy aloqa elementlarini targ'ib qildi. Dastlab zo'ravonlik sahnalari va haddan tashqari aniq sahnalar sud hukmi hamda studiya yopilishi sababli ishlab chiquvchilar tomonidan kesildi, ammo o'sha yilning oktabr oyida o'yin foydalanuvchilari tomonidan olingan past reytinglarga qaramay, senzurasiz yangi versiyasi chiqarildi [4].

"Pornografiya" atamasi (yunoncha " pornos " – erkin va " grapho " – yozaman) ma'lum bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloqiy me'yorlarga muvofiq qabul qilinishi mumkin bo'lmagan jinsiy mavzudagi asarlarni bildirish uchun ishlatiladi. Pornografiyaga bir ma'noli, behayo, jinsiy aloqaning matn, rasm va hokazolarda tasvirlangan shahvoniy tasviri sifatida qaraladi. Bunday materiallar fuqarolarning qadr-qimmatini kamsitish, psixologik noqulaylik tug'dirish, zo'ravonlikni targ'ib qilish va jinsiy jinoyatlarni qo'zg'atishga qaratilgan [5].

Har bir tarixiy davr pornografiyaning o'ziga xos ta'rifiga ega (huquqiy yoki doktrinal). Bu jamiyatga xos bo'lgan so'z erkinligi, ijod erkinligi va jinsiy erkinlik sohasidagi ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan chegaralar haqidagi qarashlarni aks ettiradi. Jamiyat qanchalik erkin va liberal bo'lsa, u tan oladigan "pornografiya" ta'rifi shunchalik tor va obyektiv (ya'ni kamroq baholovchi) bo'ladi [6].

Hozirgi vaqtda pornografiyani yaratish va tarqatish uchun javobgarlik deyarli barcha mamlakatlar jinoyat qonunlarida nazarda tutilgan. Biroq bu hodisani kriminallashtirishda davlatlarning milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'plab huquqiy nuanslar, shuningdek, jinoiy siyosatning umumiy ko'rsatmalari va usullaridagi farqlar mavjud.



Zamonaviy davlatlarning pornografiyaga nisbatan jinoiy siyosatini tahlil qilish ushbu ijtimoiy va huquqiy hodisa uchun javobgarlikning ikkita asosiy, fundamental yondashuvini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Ulardan birinchisi – qat'iy cheklangan chegaralarda pornografiyaning qonuniy aylanishi imkoniyatini taxmin qilish; ikkinchisi – jinoiy jazo bilan bunday muomalani to'liq taqiqlashga to'g'ri keladi.

Pornografiyani qisman qonuniylashtirish usuli so'nggi yillarda, birinchi navbatda, Yevropa va AQShda keng tarqaldi. Hozirda Avstraliya, Avstriya, Ozarbayjon, Albaniya, Armaniston, Belgiya, Bosniya va Gersegovina Federatsiyasi, Vengriya, Germaniya, Gruziya, Daniya, Ispaniya, Qozog'iston, Kolumbiya, Kosta-Rika, Latviya, Makedoniya, Niderlandiya, Norvegiya, Peru, Polsha, Rossiya, AQSh, Tojikiston, O'zbekiston, Fransiya, Chexiya, Shveysariya, Shvetsiya, Estoniya, Yaponiya kabi davlatlarda mavjud.

Ba'zi mamlakatlarda (Germaniya, Latviya, Finlandiya, Chexiya, Shveysariya) jinoyat qonunchiligi barcha pornografik mahsulotlarni ikki toifaga ajratadi: nisbatan yo'l qilingan ("oddiy" pornografiya) va mutlaqo mumkin bo'lmagan ("malakali" pornografiya). Oxirgi turkumga bolalar pornografiyasi, shuningdek, zo'ravon jinsiy harakatlar va ba'zi jinsiy buzuvchiliklarning tasvirlari kiradi. Masalan, Shveysariya Jinoyat kodeksida (198-moddaning 3-qismi) "malakali" pornografiya predmeti "o'z mazmuniga ko'ra, bolalar yoki hayvonlar bilan jinsiy aloqada bo'lish, jinsiy zo'ravonlik harakatlarini o'z ichiga oladi" deb belgilangan. Latviya Jinoyat kodeksiga ko'ra (166-moddaning 2-qismi), "bolalardan jinsiy foydalanish, odamlarning hayvonlar bilan jinsiy aloqa qilishlari, nekrofiliya yoki pornografik zo'ravonlikni tasvirlaydigan pornografik xarakterdagi materiallar" javobgarlikni o'g'irlashrituvchi holatlar hisoblanadi [6, 110-b].

Polsha Jinoyat kodeksining 202-moddasiga muvofiq, voyaga yetmaganlar, ya'ni 15 yoshga to'lmagan shaxslarga pornografik materiallar yoki mahsulotlarni namoyish qilish jinoyat hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar ishtirokida yoki zo'ravonlik qo'llagan holda yoki hayvonlar ishtirokida pornografik tarkibdagi materiallarni tayyorlagan, tarqatgan shaxslar 3 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [7].

Shvetsiyaning "Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar to'g'risida"gi jinoyat qonuni pornografiyaga oid beshta moddadan iborat. Ularning dispozitsiyasi jinoyatlarning batafsil tavsifi bilan ajralib turadi. Shvetsiya Jinoyat kodeksining 10a-bobi bolalar pornografiyasini taqiqlashni belgilaydi hamda qasddan va ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Qasddan jinoyatlar qilish tarqatish, tashish, qarz berish, namoyish qilish, sotib olish yoki sotib olishni taklif qilish, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi aloqani osonlashtirish hamda boshqa qadamlardan tashkil topgan va bolalar pornografiyasi jinoyatlari sifatida tasniflanadi. Ushbu qilmish uchun ikki yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan [8].

Germaniya Jinoyat kodeksiga qaraydigan bo'lsak, pornografik mahsulotni tarqatish qonunga zid hisoblanib, 1 yilgacha ozodlikdan mahum qilish yoki jarima tarzidagi jazo chorasi qo'llanadi. Mazkur jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlar: zo'ravonlik yoki hayvonlarga nisbatan jinsiy harakatlar aks ettirilgan pornografik kontentni tarqatish, 14 yoshga to'lmagan bolalar ishtirok etgan pornografik materiallarni sotish va

tarqatish, saqlash, egalik qilishga nisbatan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi qo'llanishi nazarda tutilgan [9].

Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan sxemaga ko'ra, "malakali" pornografiyani ishlab chiqarish va tarqatish har doim jazolanadi. Oddiy pornografiyani tarqatish esa faqat maxsus o'rnatilgan hollarda (bolalar yoki cheksiz auditoriyaga namoyish qilish) javobgarlikka tortiladi.

Xorijda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha huquqiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishiga tarixiy davrlarning ketma-ket o'zgarishi, muhim madaniy va tarixiy voqealar hamda turli huquq tizimlarining an'analari ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun jinoiy-huquqiy institutlarni tahlil qilish, chet el qonunchiligida madaniy meros obyektlariga nisbatan sodir etilgan qilmishning jazolanishini aniqlashda yondashuvlar huquqiy tizimlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Huquq nazariyasida huquqiy tizimlar juda xilma-xil: romano-german (kontinental) huquq tizimi; anglo-sakson huquqiy tizimi (umumiy huquq); diniy-an'anaviy huquqiy tizimlar; musulmon huquqiy tizimi va boshqalar. Shunga ko'ra, madaniy meros obyektlari (tarix va madaniyat yodgorliklari, madaniy meros obyektlari)ga tajovuz qilganlik uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi xorijiy qonun hujjatlari normalari ikkita asosiy huquqiy tizimni o'rganish asosida ko'rib chiqiladi: romano-german va anglosakson [10, 3-b.].

Turli davrlar va madaniyatning madaniy meros obyektlari eng ko'p bo'lgan mamlakat Italiyadir. Italiya jahon darajasidagi madaniy meros obyektlari soni bo'yicha eng boy davlatlardan biridir. Mazkur davlat XIX-XX asrlarda tarix va madaniyat yodgorliklari hamda madaniy boyliklarga qarshi noqonuniy harakatlardan eng ko'p jabr ko'rgan mamlakatga aylandi [11, 65-b.]. Italiya Respublikasi Jinoyat kodeksida mamlakatning tarixiy va madaniy merosiga qarshi jinoyatlar sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar mavjud. Italiya Jinoyat kodeksining 733-moddasida "o'z harakatlari bilan yodgorlik yoki boshqa muhim madaniy ahamiyatga ega obyektni vayron qilgan, yomonlashtirgan yoki shikastlagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar" deb belgilangan [12]. Italiyaning 490-sonli Farmoni va Italiya Jinoyat kodeksi normalari bir-biriga zid kelmaydi. 490-sonli Farmonda maxsus subyektlar – bino va inshootlarning egalari harakatlari (harakatsizligi) natijasida tarixiy, madaniy yoki arxeologik meros obyektining yo'q qilinishi yoki shikastlanishi jinoiy javobgarlikni vujudga keltirishni nazarda tutgan [13]. Italiya Jinoyat kodeksining 733-moddasida ko'ra, yodgorlik yoki boshqa muhim obyektni buzgan, kamsitgan yoki shikastlagan har bir kishi bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi yoki jarima bilan javobgarlikka tortiladi.

Mansabdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga nisbatan xuddi Italiya jinoyat qonunchiligidек yondashuv Fransiyaning jinoiy qonunchiligida ham qabul qilingan. Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksining 322-2-moddasida madaniy boylik ishonib topshirilgan davlat xizmatchisi, jamoat manfaati keltiruvchi shaxs, uni saqlash va undan foydalanish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Tarix va madaniyat yodgorliklari Fransiya Jinoyat kodeksining 322-2-moddasida "mulkning shikastlanishi, sinishi" nazarda tutilgan norma orqali muhofaza qilinadi va uch yil ozodlikdan mahrum qilish yoki 300 ming frank miqdorida jarima bilan jazolanadi, agar bu mulk:



arxeologik topilma yoki muzeylar, kutubxonalar yoki arxivlarda joylashgan obyekt; davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan tashkil etilgan tarixiy, madaniy yoki ilmiy xarakterdagi ko'rgazmada namoyish etilayotgan obyekt hisoblansa [14].

Buyuk Britaniyada madaniy meros obyektlari uchun davlat muhofazasi va zamonaviy foydalanishni tartibga soluvchi yagona qonun hujjatlari mavjud emas. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi nizomlar alohida qonun hujjatlarida aks etgan. 1969-yildagi "Bo'sh cherkovlar va boshqa ibodat joylari to'g'risida"gi; 1962-yildagi "Mahalliy hokimiyatlarning tarixiy binolarga nisbatan huquqlari to'g'risida"gi; 1972-yildagi "Jang maydonidagi yodgorliklar to'g'risida"gi; 1974-yildagi "Shahar va qishloq joylarini obodonlashtirish to'g'risida"gi qonunlar hujjatlari shular jumlasidan. 1979-yilda qabul qilingan "Qadimiy obidalar va arxeologik yodgorliklar to'g'risida"gi Qonun alohida e'tiborga molik bo'lib, unda "yodgorliklar" va "qadimgi davr yodgorliklari" tushunchalari ochib berilgan. Qonun bilan qo'riqlanadigan arxitektura obyektini qasddan yo'q qilish, shikastlash 1000 funt sterlinggacha miqdorda jarima va (yoki) ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi [15, 27-b.].

Qo'shma Shtatlarda milliy bog'lar tizimi yaratilgan. Mamlakatning tabiiy, madaniy va tarixiy merosini muhofaza qilishni tartibga soluvchi qonunlar mavjud. Qonun bunday bog'larga tashrif buyurish qoidalari, shuningdek, himoya qilish choralari va ulardan foydalanish qoidalarini belgilaydi. Arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq tadqiqot ishlariga alohida e'tibor beriladi [15]. Qonun buzilgan taqdirda, shaxslar javobgarlikka tortiladi. Qo'llanadigan asosiy jazolar jarima va qamoqdir [16, 5-b.].

Germaniya Jinoyat kodeksida nafaqat o'lgan shaxsning jasadi va uning dafn qilingan joyi, balki uning xotirasiga nisbatan sodir etilgan harakatlar uchun javobgarlikni tartibga soluvchi bir nechta qoidalar mavjud. Shunday qilib, Germaniya Jinoyat kodeksining 168-moddasi 1-qismiga ko'ra, marhumning jasadi yoki uning bir qismi, shuningdek, o'lgan homila, uning bir qismi yoki marhumning kulini qonuniy egalikdan noqonuniy olib qo'yganlik uchun yoki unga nisbatan "haqoratli o'zboshimchalik" sodir etilgan bo'lsa, jarima yoki uch yilgacha jazo tayinlanadi. Germaniya Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismiga ko'ra, xuddi shunday javobgarlik faqat ommaviy xotirlash yoki dafn qilish joyini vayron qilgan yoki u yerda haqoratli o'zboshimchalik sodir etgan shaxsga nisbatan paydo bo'ladi. Germaniya Jinoyat kodeksining 189-moddasiga ko'ra, marhumning xotirasini obro'sizlantiradigan jinoiy harakatlar uchun 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima ko'rinishidagi javobgarlik nazarda tutilgan [17].

Bizni qiziqtirgan huquqiy norma nuqtayi nazaridan Avstriyaning jinoyat qonunchiligi ham e'tiborga loyiqdir. Shunday qilib, Avstriya Jinoyat kodeksining 190-moddasi marhumning jasadi, uning qismlari yoki kulini olib chiqib ketish uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima shaklida javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan. 190-moddaning 2-qismiga ko'ra, dafn etilgan, tantanali vidolashuv yoki dafn etilgan joylardan zargarlik buyumlarini o'g'irlaganlik uchun 3 oygacha qamoq yoki 180 baravarigacha jarima jazosi belgilangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday jinoyat Avstriya Jinoyat kodeksining 128-moddasiga ko'ra, og'ir o'g'irlik sifatida tasniflanadi [18].

Fransiya Jinoyat kodeksining “O‘liklarni hurmat qilishga hujumlar to‘g‘risida”gi 5-bo‘limida mavjud bo‘lgan bizni qiziqtiradigan huquqiy norma nuqtayi nazaridan Fransiyaning jinoiy qonunchiligiga murojaat qilaylik. 225-17-moddada aytilishicha, marhum jasadining daxlsizligiga qarshi har qanday jinoyat, qanday usulda bo‘lishidan qat’i nazar, shuningdek, marhumlar xotirasiga o‘rnatilgan qabrlar, yodgorliklar yoki qabrlarni buzish yoki tahqirlash har qanday yo‘l bilan bir yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish va 100 ming frank miqdorida jarima bilan jazolanadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, ushbu moddaga kiritilgan eslatmaga ko‘ra, agar jinoyat murdaning daxlsizligiga tajovuz qilish bilan birga bo‘lsa, jazo ikki yilgacha uzaytirilishi yoki ikki baravarigacha jarima solinishi mumkin [19].

Marhumlarning jasadlari va ular dafn etilgan joylarni tahqirlash uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normalarning xorijiy davlatlar qonunchiligi shuni ko‘rsatadiki, anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlaridan farqli o‘laroq, romano-german tizimiga mansub davlatlarning jinoyat kodekslari texnik va huquqiy tuzilishi jihatidan ancha yaxshi ishlab chiqilgan.

Qiyosiy tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, axloqqa qarshi jinoyatlar zamonaviy jinoyat huquqining eng muammoli masalalaridan biridir. Qonun chiqaruvchilar ba‘zan mamlakatlarning ushbu sohadagi jinoiy siyosatining murosasiz qarama-qarshiligidan dalolat beruvchi yondashuvlarni namoyish etadi.

Har qanday mamlakatning yetarlicha yuqori rivojlanish darajasining ko‘rsatkichi – bu davlat ichidagi va jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o‘zgarishini hisobga olgan holda, o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan moslashuvchan qonunchilik tizimi. Hozirgi vaqtda davlat va xususiy manfaatlar muvozanati tamoyilini samarali amalga oshirish asosida anglo-sakson va romano-german huquqiy oilalari mamlakatlarining allaqachon mavjud bo‘lgan huquqiy tizimlarini yaqinlashtirish jarayoni eng muhim hisoblanadi.

Chet el qonunchiligini o‘rganish ko‘rib chiqilayotgan muammoga yangicha qarash, O‘zbekiston jinoyat qonunchiligining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, bir qator jinoiy huquq normalarini o‘z vaqtida takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining jinoiy siyosatini sifatli kriminologik tahlil qilishga imkon beradi.

REFERENCES

1. Criminal Code Hungary, Act C of 2012. Available at: <https://www.refworld.org/docid/4c358dd2/> (accessed 10.11.2022).
2. Kriminologiya [Criminology]. Ed. J.F. Shelley: trans. from English. St. Petersburg, Peter, 2003, 864 p.
3. Sravnitel’noye ugolovnoye pravo [Comparative criminal law]. Special part. Ed. S.P. Shcherby. Moscow, Yurlitinform, 2010, 544 p.



4. Available at: <https://3dnews.ru/970879/>.
5. Sullivan W. Violent Pornography Elevates Aggression, Researchers Say. *The New York Times*, 1980, September 30, pp. 1–3.
6. Kapinus O.S., Dodonov V.N. Otvetstvennost' za pornografiyu v sovremennom ugolovnom prave [Responsibility for pornography in modern criminal law]. *Law and Politics*, 2006, no. 12, pp. 109–118.
7. Criminal Code of the Republic of Poland, 1997, amended 2016. Available at: <https://legislationline.org/Poland#section-3/>.
8. Criminal code of the Kingdom of Sweden, 1962, amended 2021. English version. Available at: https://legislationline.org/sites/default/files/documents/98/Sweden_CC.pdf/.
9. Criminal Code of the Federal Republic of Germany, 1971, amended 2013. English version. Available at: https://legislationline.org/sites/default/files/documents/8c/Germany_CC_am2013_en.pdf/.
10. Melekhin A.V. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of State and Law]. 2nd ed., revised and supplemented. Prepared for the ConsultantPlus system, 2009, SPS ConsultantPlus, p. 545.
11. Khalikov I.A. Ugolovnaya otvetstvennost' za narusheniye trebovaniy sokhraneniya ili ispol'zovaniya ob'yektov kul'turnogo naslediya (pamyatnikov istorii i kul'tury) narodov Rossiyskoy Federatsii [Criminal liability for violation of the requirements for the preservation or use of cultural heritage objects (monuments of history and culture) of the peoples of the Russian Federation]. PhD thesis. Moscow, 2018.
12. Ugolovnyy kodeks Italii [Italian Criminal Code]. Moscow, 2001, 216 p. Moscow, 2001, 216 p.
13. Ignatova M.A. Ugolovnoye pravo Italii: Osnovnyye instituty [Criminal Law of Italy: Main Institutions]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2002, 138 p.
14. Penal code France 1981. Version in force on November 13, 2022. Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070719/>.
15. Domrin A.N. Okhrana pamyatnikov istorii i kul'tury v Velikobritanii [Protection of historical and cultural monuments in Great Britain]. Legal protection of historical and cultural monuments in foreign countries. Collection of scientific papers. RAN INION, Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation, Moscow, 2005, 172 p.
16. Sobolev K.V. Sravnitel'nyy analiz rossiyskogo i zarubezhnogo zakonodatel'stva v oblasti okhrany pamyatnikov arkheologii [Comparative analysis of Russian and foreign legislation in the field of protection of archaeological monuments]. Bulletin of the Samara State University, 2001, p. 5.
17. Criminal Code of the Federal Republic of Germany, 1971, amended 2013. English version. Available at: https://legislationline.org/sites/default/files/documents/8c/Germany_CC_am2013_en.pdf/.
18. Criminal Code of Austria. Adopted on 1974, amended 2012. Available at: https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_isn=93674&p_lang=/.
19. Penal code France 1981. Version in force on November 13, 2022. Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070719/>.

UDC: 339.5(045)(575.1)

BOJXONA TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZISH JINOYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA OBYEKTIV BELGILARI

Xolikov Farhod O'ktamovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurishish
kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0003-4475-0898
e-mail: fxolikov@internet.ru

Annotatsiya. Maqolada muallif tomonidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining obyektiv belgilariga oid ayrim mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, muallifning qayd etishicha, bugungi kunda rivojlangan bozor iqtisodiyoti va globallashuv jarayonlarida hech qaysi mamlakat o'z qobig'iga o'ralib, faqat o'zi ishlab chiqargan mahsulot hisobiga yashay olmaydi. Dunyo bozori mavjud ekan, mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimoti, tovarlarni ayirboshlash uchun eksport-import operatsiyalari ham mavjud bo'ladi. Bunday tovarlarning turi va miqdori, albatta, muayyan davlatdagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqadi. Har bir mamlakat o'z iqtisodiyotini tashkil etar ekan, ushbu holatlarni hisobga olishga majburdir. O'zi ishlab chiqargan tovarlar hisobiga natural xo'jalik asosida yashamoqchi bo'lgan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, ular qoloqlik va qashshoqlikka mahkum bo'ladilar. Ammo bunday sharoitda davlat hududiga kirib kelayotgan tovarlarning belgilangan standartlarga javob berishi, turi va sifati katta ahamiyat kasb etadi. Sifatsiz va tegishli standartlarga javob bermaydigan tovarlarning mamlakat hududiga olib kirilishi nafaqat aholi salomatligi, hayoti, balki davlat xavfsizligiga ham xavf tug'diradi. Shu sababdan kamroq harakat qilib, ko'proq foyda qilishni o'ylagan jinoyatchilar turli yo'llar va usullar orqali bunday tovarlarni mamlakat hududiga olib kirish (olib chiqish)ga harakat qiladilar. Shuning uchun ham barcha davlatlarda shu kabi holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida mamlakatning chegara hududlarida bojxona nazorati tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: tovar, boshqa qimmatliklar, bojxona, bojxona qonunchiligi, bojxona nazorati, yashirib o'tkazish, bojxona hujjatlari, deklaratsiya, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tish.



ОСОБЕННОСТИ И ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ НАРУШЕНИЯ ТАМОЖЕННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА КАК ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Холиков Фарход Уктамович,
преподаватель кафедры «Уголовное право, криминология
и борьба с коррупцией» Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье автор описывает некоторые комментарии к объективным признакам преступления – нарушения таможенного законодательства. Также, по замечанию автора, в условиях современной развитой рыночной экономики и процессов глобализации ни одна страна не может оставаться изолированной и жить только за счет производимой продукции. Пока существует мировой рынок, будет существовать международное разделение труда между странами, экспортно-импортные операции по обмену товарами. Вид и количество таких товаров, безусловно, зависят от существующих потребностей конкретной страны. Каждая страна обязана учитывать эти обстоятельства при организации своего хозяйства. Опыт стран, пытающихся жить на основе натурального хозяйства за счет производимых ими товаров, показывает, что они обречены на отсталость и нищету. Однако в таких условиях большое значение имеет то, чтобы товары, поступающие на территорию государства, соответствовали заданным стандартам, типу и качеству. Ввоз на территорию страны некачественных товаров, не отвечающих соответствующим стандартам, представляет угрозу не только здоровью и жизни населения, но и безопасности государства. По этой причине преступники, которые думают о том, чтобы приложить меньше усилий и получить больше прибыли, разными способами пытаются ввозить (вывозить) такие товары в страну (из страны). Поэтому для предупреждения и борьбы с подобными ситуациями во всех странах организован таможенный контроль в приграничных районах страны.

Ключевые слова: товары, иные ценности, таможня, таможенное законодательство, таможенный контроль, сокрытие, таможенные документы, декларирование, перемещение через таможенную границу Республики Узбекистан.

SPECIFIC ASPECTS AND OBJECTIVE SIGNS OF THE CRIME OF VIOLATION OF CUSTOMS LEGISLATION

Kholikov Farhod Uktamovich,
Lecturer at the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption of
Tashkent State University of Law

Abstract. *In the article, the author describes some comments on the objective signs of the crime of violation of customs legislation. Also, according to the author's note, in today's developed market economy and globalization processes, no country can stay in its shell and live only at the expense of the products it produces. As long as there is a world market, there will be an international division of labor between countries, and export-import transactions for the exchange of goods. The type and quantity of such goods, of course, depends on the existing needs in a particular country. Each country is obliged to take these circumstances into account while organizing its economy. The experience of countries that try to live on the basis of a natural economy at the expense of the goods they produce shows that they are doomed to backwardness and poverty. However, in such conditions, it is of great importance that the goods entering the state territory meet the specified standards, type and quality. The importation of low-quality goods that do not meet the relevant standards into the territory of the country poses a threat not only to the health and life of the population but also to state security. For this reason, criminals who think of making less effort and more profit try to import (export) such goods into the territory of the country in different ways. Therefore, in order to prevent and combat similar situations in all countries, customs control is organized in the border areas of the country.*

Keywords: *goods, other valuables, customs, customs legislation, customs control, concealment, customs documents, declaration, transportation across the customs border of the Republic of Uzbekistan.*

Bugungi kunda rivojlangan bozor iqtisodiyoti va globallashuv jarayonlarida hech qaysi mamlakat o'z qobig'iga o'ralib, faqat o'zi ishlab chiqargan mahsulot hisobiga yashay olmaydi. Dunyo bozori mavjud ekan, mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimoti, tovarlarni ayirboshlash uchun eksport-import operatsiyalari ham mavjud bo'ladi. Bunday tovarlarning turi va miqdori, albatta, muayyan davlatdagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqadi. Har bir mamlakat o'z iqtisodiyotini tashkil etar ekan, ushbu holatlarni hisobga olishga majburdir. O'zi ishlab chiqargan tovarlar hisobiga natural xo'jalik asosida yashamoqchi bo'lgan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, ular qoloqlik va qashshoqlikka mahkum bo'ladilar.

Ammo bunday sharoitda davlat hududiga kirib kelayotgan tovarlarning belgilangan standartlarga javob berishi, turi va sifati katta ahamiyat kasb etadi. Sifatsiz va tegishli standartlarga javob bermaydigan tovarlarning mamlakat hududiga olib kirilishi nafaqat aholi salomatligi, hayoti, balki davlat xavfsizligiga ham xavf tug'diradi. Shu sababdan kamroq harakat qilib, ko'proq foyda qilishni o'ylagan jinoyatchilar turli yo'llar va usullar orqali bunday tovarlarni mamlakat hududiga olib kirish (olib chiqish) ga harakat qiladilar. Shuning uchun ham barcha davlatlarda shu kabi holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida mamlakatning chegara hududlarida bojxona nazorati tashkil etiladi.

Jinoyat obyekti – bu jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir.



Jinoyat obyekti yordamida jinoyat huquqining ijtimoiy-siyosiy mazmuni, tajovuz qilish ijtimoiy xavfliligining xarakteri aniqlanadi. Ma'lumki, jinoyatning yuridik mohiyati, uning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda, jinoyat qonunining Maxsus qismida jinoyat-huquqiy taqiqlarni joylashtirish tartibini belgilashda jinoyatning obyekti birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, uning ijtimoiy xavfliligi bu turdagi qilmishlarning sodir etilishi nazorat qilib bo'lmaydigan tovarlar muomalasining O'zbekiston Respublikasi hududida taqchilligi holatini yuzaga keltiradi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar rentabelligiga putur yetkazadi. Davlat bojxona siyosatini yuritish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinadi.

Bundan tashqari, mazkur jinoyatning sodir etilishi boshqa jinoyatlarning ham amalga oshirilishiga zamin yaratadi. Jumladan, soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy kirish yoki chet elga chiqish, sifatsiz yoki xavfsiz mahsulotlarni muomalaga kiritish kabi ijtimoiy xavfli qilmishlar shular jumlasidan.

Xuddi shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati iqtisodiy barqarorlikni izdan chiqaradi, inflyatsiya darajasi oshishiga real xavf tug'diradi. Bu esa jamiyatning iqtisodiy asoslariga putur yetkazib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarini sekinlashtiradi.

Ushbu jinoyat normasining dispozitsiyasi blanket xarakterga ega. Mazkur moddaning nomida qilmishga jinoiy-huquqiy baho berish uchun bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga havola qilish lozim.

Quyida rioya qilmaganlik yoki bo'ysunmaganlik yoxud tegishli talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik keltirib chiqaradigan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi, "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining "Jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Temir yo'l transportida yuruvchi yo'lovchilar qo'l yuki, yuki, valyuta va valyuta qimmatliklarining bojxona nazorati va rasmiylashtirish tartibi hamda boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasi (bojxona to'g'risidagi

qonun hujjatlarini buzish) hamda 246-moddasi (kontrabanda)da jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning ijtimoiy xavfliligi nafaqat O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga zarar yetkazishi, balki boshqa og'ir jinoyatlar sodir etilishiga zamin yaratishi bilan ham belgilanadi. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatini sodir etish natijasida nazorat qilinmagan tovarlar muomalasi yoki tovarlarning respublika hududida taqchilligi holatini keltirib chiqarishiga sabab bo'lishi bilan ham izohlanadi. Shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi natijasida mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga putur yetkaziladi, inflyatsiya darajasi oshishining real xavfini keltirib chiqaradi.

Mazkur jinoyatning obyekti tovar yoki boshqa moddiy qimmatliklarni bojxona orqali o'tkazishning o'rnatilgan tartibi hamda respublika iqtisodiyoti asoslari sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining obyekti davlat va jamiyatning iqtisodiy manfaatlari hisoblanadi, chunki, birinchidan, bu qilmishni sodir etish natijasida olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarga qo'yilgan bojlar davlat budjetiga kelib tushmaydi, ikkinchidan, respublikadan mamlakat iqtisodiy ahamiyatiga ega bo'lgan, chiqarilishi taqiqlangan tovarlar chiqib ketishiga yo'l qo'yilgan bo'ladi [1].

Quyidagilar JK 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat predmeti hisoblanadi:

bojxona chegarasidan o'tkazilayotgan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan, valyuta va valyuta qimmatliklari;

elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari;

bojxona qonunchiligiga muvofiq, tovar deb tan olinadigan transport vositalari;

intellektual mulk obyektlari (foydali modellar, sanoat namunalari);

madaniy boyliklar – moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'char ashyolari;

o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari.

Obyektiv tomondan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda ifodalanadi. Shuningdek, ushbu jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi shaxsning ilgari xuddi shu qilmishni sodir etganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganligi hisoblanadi.

Ushbu jinoyatning juda ko'p miqdorda chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab, xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilganligi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida belgilangan.



Mazkur jinoyat sodir etilayotganda, tajovuz iqtisodiyot sohasidagi munosabatlarga yo'naltiriladi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 412-moddasida ham bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini kam ahamiyatli huquqqa xilof harakatlar orqali buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227-va 227¹-227²⁷-moddalarida ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi, eng avvalo, bojxonaga oid har qanday qoidabuzarlik yoki bunday qoidabuzarlikka har qanday urinishda o'z ifodasini topadi.

Bojxona kodeksining 5-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bilan ustma-ust tushadi. O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin. Ularning hududlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona hududidan tashqarida joylashgan hisoblanadi.

Bojxona hududi sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan qat'iy belgilangan. Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o'tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni hamda "Erkin ombor" bojxona rejimi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1309, 2004-yil 9-fevral) bilan ham belgilanadi.

Bojxona kodeksining 3-moddasiga asosan, bojxona ishida bojxona organi bojxona deklaratsiyasi va boshqa hujjatlarni qabul qilib olgan kuni amalda bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanadi. Tegishli moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas hamda ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik esa ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilgan kunda amalda bo'lgan qonun hujjatlari asosida qo'llaniladi.

Bunda "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi ikkinchi qismi, "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi birinchi qismi, "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi ikkinchi qismi va 12-moddasi, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasi birinchi va ikkinchi

qismlari, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-iyuldagi 315-sonli “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandi talablari inobatga olinishi lozim.

Tovarlar va transport vositalarini olib kirish hamda olib chiqish tartibi Bojxona kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-sonli “Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-noyabrdagi 247-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular mavjud bo‘lgan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 716, 1999-yil 7-may) va “O‘zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasini olib kirish hamda olib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 1326, 2004-yil 16-mart) va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinar edi.

Bojxona kodeksining 21-moddasida bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazorati hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilishi kerak. Bojxona nazorati O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta‘minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan, xavfni boshqarish tizimi qo‘llangan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasidan iborat. Bojxona chegarasidan olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta‘minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o‘tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmuasi bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi. Shuningdek, bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda, bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emasliklari mustahkamlangan.

Bojxona nazoratini o‘tkazish qoidalari, jumladan, Temir yo‘l transportida yuruvchi yo‘lovchilar qo‘l yuki, yuki, valyuta va valyuta qimmatliklarining bojxona nazorati va rasmiylashtirish tartibi (ro‘yxat raqami 619, 1999-yil 5-fevral) bilan ham belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan hamda shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o‘tkazilishi lozim, Bojxona kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bojxona nazorati bojxona hududiga olib kirishda – tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o‘tgan paytdan e‘tiboran, shuningdek, bojxona hududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqishda – bojxona deklaratsiyasi qabul qilib olingan paytdan e‘tiboran boshlanadi.



Bojxona nazorati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalari saqlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqishga ruxsat berilgan paytdan yoxud ular bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran tugallanadi. Bugungi kunda ko'pgina olimlar jinoyatning obyektiga jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar, subyektlarning manfaatlari, qonunda belgilangan tartib sifatida yondashadilar. "Obyekt – bu ijtimoiy munosabat" qarashi tarafdorlarining fikricha, jinoyat huquqi uchun fuqarolarning xulq-atvori qoidalarini belgilash o'zining pirovard maqsadi – ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga erishish usuli hisoblanadi.

Quyidagilar ijtimoiy munosabatning tarkibiy elementlaridir:

1) munosabat subyektlari (tashuvchilari); 2) munosabatning mazmuni sifatida ijtimoiy aloqa (ayni holda ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat); 3) munosabatning mavjudligini belgilaydigan predmet, ya'ni bunday o'zaro aloqaning yuzaga kelishi va mavjud bo'lishini bilvosita belgilaydigan omillar.

Bu mulohazalardan kelib chiqib, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining bevosita obyekti mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlari, iqtisodiyot asoslarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki, JK 182-moddasi kodeksning "Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan 12-bobiga kiritilgan. Yuridik ensiklopediyaga ko'ra, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar – davlat milliy iqtisodiyoti asoslari, jumladan, pul-kredit, moliya, bojxona, valyuta va soliq munosabatlariga zarar yetkazadigan jinoyatlardir.

Jinoyat huquqida jinoyat tarkibining obyektiv belgilari deganda, uning obyekti, obyektning zaruriy va fakultativ belgilari tushuniladi. Shu sababdan mazkur paragrafda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilari ham yoritiladi.

Jumladan, ushbu jinoyatning predmeti har qanday tovarlar yoki boshqa qimmatliklar hisoblanadi. Xususan, bojxona chegarasidan o'tkazilayotgan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan, valyuta va valyuta qimmatliklari; elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari; tovar deb tan olinadigan transport vositalari; intellektual mulk obyektlari (foydali modellar, sanoat namunalari); madaniy boyliklar – moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy- ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'char ashyolari (O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi qonuni 3-moddasi) hamda o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari ko'rilyotgan jinoyatning predmetlarini tashkil etadi.

Ushbu modda doirasida ashyo va buyumlarning tovar yoki boshqa qimmatliklar ekanligini belgilashda aybdor tomonidan ulardan qanday maqsadlarda foydalanilishi ahamiyat kasb etmaydi. Ular tadbirkorlik yoki shaxsiy iste'mol maqsadlarida foydalanilishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 182-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan

foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda ifodalanadi.

Tovarlarni bojxona nazoratini chetlab o'tkazish ularni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlaridan tashqari yoki bojxona nazorati o'tkazish vaqtidan tashqari olib kirish yoki mazkur hududdan olib chiqishdan iborat har qanday harakatda ifodalanadi.

Tovarlarni bojxona nazoratidan yashirish deganda, ularni topishni qiyinlashtirish yoxud ularning asl xususiyati yoki miqdorini yashirish (masalan, ayrim bir tovarlarga boshqasining ko'rinishini berish, tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan xufya joylar (chemodanlar, sumkalar, transport vositalari, konteynerlar va boshqa tashish vositalarining konstruksiyaviy (tuzilish) xususiyatiga ko'ra, ashyolarini saqlash yoki tashishga mo'ljallanmagan bo'shliqlari, devorlari (ramalari) oralari)dan foydalanish, jinoyat predmetlarini odam tanasida yashirish)ga qaratilgan har qanday harakatlar tushuniladi.

Bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, jumladan, bojxona organlariga bilaturib qalbaki hujjatlar, yolg'on ma'lumotlar kiritilgan hujjatlar, qonunga xilof ravishda olingan yoki boshqa tovarlarga tegishli hujjatlar, haqiqiy bo'lmagan hujjatlarni taqdim etish hamda qalbakilashtirilgan bojxona qiyoslash vositalari (plombalar, muhrlar, markalar bosish, qiyoslash belgilari, shtamplar va Bojxona kodeksi 46-moddasida nazarda tutilgan boshqa identifikatsiyalash vositalari) yoki boshqa tovarlarga tegishli haqiqiy qiyoslash vositalaridan foydalanish tushuniladi.

Tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazishning har bir tartibi uchun qonunchilikda bojxona organlariga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarning alohida ro'yxati nazarda tutilgan (BK 45-m.). Shundan kelib chiqib, mazkur ro'yxatlarda nazarda tutilmagan hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organlariga taqdim etmagan shaxsning harakatlari qonunga xilof deb qaralishi mumkin emas.

Tovarlarni deklaratsiya qilmasdan bojxona chegarasidan o'tkazish tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish (chiqarish), ularni tanlangan bojxona rejimi ostiga joylashtirish, bojxona to'lovlarini hisoblash va undirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan tovarlar haqidagi ma'lumotlarni bojxona deklaratsiyasida qasddan bayon qilmaslikni nazarda tutadi.

Mazkur jinoyat boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish orqali sodir etilganda, qilmish obyektiv tomondan bojxona deklaratsiyasi yoki deklaratsiyalashning boshqa belgilangan shaklida tovarlar (nomlanishi, sifati va xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi ma'lumotlar, shu jumladan, ularning TIF TN kodlari¹), bojxona rejimi to'g'risida bilaturib yolg'on ma'lumotlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi.

¹ TIF TN – O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 8701–8705, 8709, 8711, 8716 tovar pozitsiyalarida tasniflanadigan va avtomobil yo'llarida yo'lovchilar, bagajlar, yuklarni tashish va maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan vositalar, shu jumladan, konteynerlar va boshqa transport uskunolari.



Bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasini tekshirish, tovarlarni ko'zdan kechirish va bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlangunga qadar bojxona deklaratsiyasida yo'l qo'yilgan xatolarning deklarant tomonidan mustaqil tuzatilishi ma'muriy va jinoiy javobgarlikni istisno etadi.

Deklaratsiya qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan tartib va shakllarda ariza berish orqali amalga oshiriladi. Shunga alohida e'tibor berish lozimki, bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab yuridik ahamiyatga ega hujjatga aylanadi.

Jinoyat kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning tugallanish payti har bir muayyan ish bo'yicha tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish usulidan (bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirgan holda, tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish jinoyati tovarlar bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalangan holda, tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish jinoyati qayd etilgan huquqqa xilof usullardan biri aniqlangan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Agar tovarlarni o'tkazish jarayonida Jinoyat kodeksi 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat usuli (hujjatlar yoki bojxona qiyoslash vositalaridan aldov yo'li bilan foydalanish, deklaratsiya qilmaslik, boshqa nomga deklaratsiya qilish, bojxona nazoratidan yashirish) aniqlanmagan bo'lsa, jinoyat bojxona organlari tomonidan tovarlarni chiqarish to'g'risida qaror chiqarilgan paytdan, bunday qaror shaxs bojxona taomilini yakunlashdan bo'yin tovlaganligi sababli qabul qilinmagan hollarda esa tovarlar bojxona nazorati ostidan amalda chiqarilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasining birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik tovarlar va transport vositalarini ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227¹⁶-, 227¹⁹-, 227²⁰-, 227²¹-moddalari, 227²²-moddasining birinchi qismi) shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida yana aynan shunday huquqbuzarlikni ko'p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqadi.

Tovarlar va transport vositalarini qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan ko'p miqdorgacha o'tkazganlik uchun har doim shaxs aynan shunday huquqbuzarlik uchun bir yil davomida bir necha marta ma'muriy javobgarlikka tortilganligidan qat'i nazar, ma'muriy javobgarlik kelib chiqadi.

Bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilayotgan tovarlar miqdorini aniqlashda, ushbu tovarlarning jinoyat sodir etilgan vaqtdagi bozor qiymatidan kelib chiqilishi lozim.

Tovarlar qiymatini aniqlashning imkoniyati bo'lmagan hollarda (masalan, qalbakilashtirilgan spirtli ichimliklar, kontrafakt tovarlar), ularning qiymati baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilayotgan tovarlar miqdorini aniqlashda faqat bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki qiyoslash vositalaridan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib o'tkazilgan tovarlar qismining qiymati inobatga olinishi kerak.

Agar shaxs bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bir qatorda, qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 182- va 223-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmuyi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qayd etish lozimki, hujjatning qalbaki ekanligini bilaturib, uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs harakatlari Jinoyat kodeksining 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va qo'shimcha ravishda 228-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi.

Agar shaxs Jinoyat kodeksining 182-moddasi ta'siriga tushuvchi tovarlarni bojxona chegarasi orqali o'tkazish bilan bir qatorda, kontrabanda jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 182- va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmuyi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Uzbek SSR]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1971, p. 10.
2. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Tashkent, MIA Academy, 2016, p. 209.
3. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi (umumiy qism) [Criminal law (general part)]. Textbook for higher educational institutions. Tashkent, TSIL, 2006, p. 170.
4. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Textbook for higher educational institutions. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2005, p. 218.
5. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Textbook for higher education institutions. Tashkent, ILM ZIYO Publ., 2011, vol. 4, p. 420.
6. Xolikov F.U. Bojxonaga oid qonunchilikni buzishning subyektiv belgilari [Subjective signs of violation of customs legislation]. *Journal of Legal Researches*, 2022, no. SI-3.
7. Xolikov F.U. Ayrim xorijiy davlatlarda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari [Issues of criminal liability for violation



of customs legislation in some foreign countries]. *International Journal of Conference Series on Education and Social Sciences*, 2022, vol. 2, no. 6.

8. Pasat A.O. Comparative analysis in the field of customs offenses and criminal regulations in certain states in relation to the legislation of the Republic of Moldova. *Juridical Tribune*, 2017, June, vol. 7, iss. 1, pp. 101–117.

9. Salaev N., Khamidov N. Qualification of smuggling: uzbek legislation and foreign experience. *Ilkogretim Online - Elementary Education Online*, 2021, no. 20 (3), pp. 1661-1667. DOI: 10.17051/ilkonline.2021.03.189/.

10. Ovchinnikov S.N. Tamozhennyie prestupleniya v mezhdunarodnom prave: problema razgranicheniya [Customs Crimes in International Law: The Problem of Delimitation]. *All-Russian Journal of Criminology*, 2015, vol. 9, no. 4, pp. 777-785.

UDC: 343.1(045)(575.1)

QILMISH YOKI SHAXS IJTIMOY XAVFLILIGINI YO'QOTGANLIGI MUNOSABATI BILAN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING AYRIM MASALALARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan
ORCID: 0000-0003-39-53-3800
e-mail: jasurbekataniazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishni tergov qilish va sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish yoki shaxs o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etishda ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada mazkur asosga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va jinoyat ishini tugatish amaliyoti tahlil etilgan bo'lib, qonunchilik (moddiy va protsessual) va amaliyotdagi o'zaro nomutanosibliklar hamda kollizion holatlar yoritilgan. Shuningdek, sharoitning o'zgarishi jumlasiga huquqiy nuqtayi nazardan olimlarning fikrlari o'rganilgan holda, sharoitning o'zgarishi natijasida shaxs o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligiga yuridik ta'rif ishlab chiqilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llanilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sharoit o'zgarganligi, shaxs yoki qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi, jinoyat ishini tugatish, rad etish, zararning qoplanishi, ijtimoiy xavflilik.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В СВЯЗИ С УТРАТОЙ ДЕЯНИЕМ ИЛИ ЛИЦОМ ОБЩЕСТВЕННОЙ ОПАСНОСТИ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,
докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, капитан.



Аннотация. В настоящей статье рассмотрены процессуальные проблемы, связанные с отказом или прекращением производства по делу и аспекты правового регулирования указанных вопросов при освобождении лица от ответственности в связи с совершенным деянием или утратой лицом своей общественной опасности вследствие изменения обстоятельств в ходе расследования и рассмотрения дела в суде. В статье проанализирована практика отказа в возбуждении уголовного дела и прекращения уголовного дела по данному основанию, освещены несоответствия в законодательстве (материальном и процессуальном) и практике, а также коллизионные обстоятельства. Также, изучая мнения ученых с юридической точки зрения на предложение об изменении обстоятельств, было разработано юридическое определение того, что лицо утратило свою общественную опасность в результате изменения обстоятельств. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: изменение обстоятельств, утрата лицом или деянием своей общественной опасности, прекращение уголовного дела, отказ, возмещение ущерба, общественная опасность.

SOME ISSUES OF EXEMPTION FROM LIABILITY IN CONNECTION WITH THE LOSS OF PUBLIC DANGER OF AN ACT OR PERSON

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich

Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article discusses the procedural problems associated with the refusal or termination of proceedings in the case and aspects of the legal regulation of these issues when releasing a person from responsibility in connection with the committed act or loss of a person's public danger due to a change in circumstances during the investigation and consideration of the court case. The article analyzes the practice of refusal to initiate criminal proceedings and termination of criminal proceedings on this basis, highlights inconsistencies in legislation (substantive and procedural) and practice, as well as conflicting circumstances. Also, studying the opinions of scientists from a legal point of view on the proposal to change circumstances, a legal definition was developed that a person lost his public danger as a result of a change in circumstances. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. In the course of the study, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result

of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

Keywords: *change of circumstances, loss by a person or act of his public danger, termination of a criminal case, refusal, compensation for damage, public danger.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati inson qadri va inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozimligi bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bu jarayonlarda shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 65-moddasiga ko'ra, ishni tergov qilish va sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, shuningdek, xuddi shu asosda sharoit o'zgarganligi tufayli shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu asosda shaxslarni javobgarlikdan ozod etish huquqiy demokratik davlatning insonparvarlikka yo'g'rilgan qonunlarining amaldagi yorqin ifodasi hisoblanadi.

Statistik raqamlar shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatishda mazkur asos qo'llanishi tobora kamayib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda 2017-yilda jami 271 ta jinoyat ishi doirasida 471 nafar shaxs javobgarlikdan ozod etilgan bo'lsa, 2018-yilda 207 ta ishda 347 nafar shaxs, 2019-yilda 110 ta ishda 163 nafar shaxs, 2020 yilda 99 ta ishda 141 nafar shaxs va 2021-yilga kelib 130 ta jinoyat ishi doirasida 222 nafar shaxs mazkur asosga ko'ra javobgarlikdan ozod etilgan. Mazkur tugatilgan ishlar doirasida jami 155 nafar yoshlar, 225 nafar ayollar, 32 nafar voyaga yetmaganlar, 84 nafar 60 yoshdan oshgan shaxslar javobgarlikdan ozod etilgan [2].

Tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlarini tergov qilish bo'yicha mazkur asosni qo'llash borasida mavjud muammolar va yuqoridagi normani huquqiy jihatdan tahlil qilamiz.

Jinoyat qonuni ishni faqatgina tergov yoki sud jarayonida ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli qilmish yoki jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topsa, javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligini nazarda tutmoqda. Biroq qonun chiqaruvchi aynan sharoitning o'zgarganligi nimani ifodalashi hamda qaysi holatlar qilmish va jinoyat sodir etgan shaxsni o'zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishini aniq belgilab bermagan.

M.X. Rustamboyev "sharoitning o'zgarishi deganda, qilmishga jinoiylik xususiyatini beruvchi joy va vaqtga tegishli bo'lgan maxsus shartlarning o'zgarishi tushuniladi. Shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi haqida nafaqat uning hayotiy obyektiv



sharoitlari, balki uning sodir etilgan jinoyatdan keyingi xulqi hamda uning namunali xulqi, kasbiy va ijtimoiy majburiyatlarga munosabati va hatto uning axloqi guvohlik beradi” [3, 195-199-b.], deb ta’kidlaydi.

Olimning fikrlari natijasida sharoitning o’zgarishi sababli qilmishning jinoylik xususiyati yo’qolishi yoki jinoyat sodir etgan shaxsni ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo’qotgan deb topish to’liq surishtiruv, tergov va sudlarning mansabdor shaxslari tomonidan baholanishiga olib kelishi mumkinligini bildiradi.

M. Usmonaliyevning fikriga ko’ra, “obyektiv ravishda yuz bergan o’zgarishlar tufayli sodir etish paytida ijtimoiy xavfli hisoblangan qilmish sharoit o’zgarganligi uchun o’zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo’qotadi. Bunda sharoitning o’zgarganligi muhim omil sanaladi, ammo shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo’qotgan deb topilishida umuman sharoitning o’zgarganligi emas, balki shaxsning atrofini o’rab turgan muhitda o’zgarishlar yuz berganligi nazarda tutiladi” va olim bunga misol sifatida sud amaliyotida jinoyat sodir qilgan shaxsning harbiy xizmatga chaqirilishi, bolalariga nafaqa (aliment) to’lashdan bosh tortib yurgan shaxsning o’z oilasiga qaytishi, baxtsiz hodisa tufayli shaxsning nogiron bo’lib qolganligi, jinoyat sodir qilgan shaxsning qahramonlik namunalarini ko’rsatganligi va hokazolarni keltirib o’tadi [4, 321-b.].

M. Usmonaliyevning fikrlarida obyektiv ravishda sharoitning o’zgarishi tushunchasi mavhumligicha qolgan. Z. Zaripov va A. Yakubovlar esa “sharoitning o’zgarishi deganda, obyektiv voqelikdagi sodir etilgan jinoyatning yangi ijtimoiy sharoitlarda ijtimoiy xavfliligini yo’qotishiga olib kelgan o’zgarish tushuniladi va javobgarlikdan ozod etishning mazkur turi shartsizdir” [5, 356-358-b.], deb ta’kidlashgan.

Mazkur olimlarning fikrlaridan ham qonun ushbu vaziyat o’zgarishi natijasida qanday jinoyatlar ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo’qotishi yoki jinoyat sodir etgan shaxsning xulqi yoki jismoniy imkoniyatida qanday o’zgarishlar bo’lishi lozimligini belgilay olmaydi, degan xulosa kelib chiqadi.

Umuman olganda, barcha turdagi javobgarlikdan ozod qilish asoslarining o’zagida shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo’qotganligi yotadi va bu javobgarlikdan ozod qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Biroq biz tahlil etayotgan normada jinoyat sodir etgan shaxsga hech bir shartsiz mazkur asosni qo’llashimiz mumkin. Qolaversa, mazkur asosdagina og’ir va o’ta og’ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikdan ozod etish mumkinligi bilan farqlidir.

A. Yendolsevaning fikriga ko’ra, jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo’qotganligi uning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishning og’irlik darajasi va mazkur jinoyatni sodir etgandan keyingi xulq-atvori, ya’ni jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashganligi, yetkazilgan zararni qoplaganligi, tergov va suddan yashirinmasligi va hokazolar bilan baholanadi [6, 74–78-b.].

B. Murodovning fikricha, “Jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfi yo’qolishi natijasida unga nisbatan jinoyat ishini tugatish masalasini hal etishda vaziyatning o’zgarishi deganda, aybdor shaxsning jinoyatni sodir etguniga qadar va undan keyingi holati hamda mavjud sharoitning o’zgarishini tushunish lozim” [7, 128-b.].

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti va sog’lig’i, mulk,

jamoat xavfsizligi va h.k.), ayb shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga (JK 15-moddasi) kiritilganligi bilan belgilanishi lozimligi tushuntirilgan [8].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda, quyidagilarni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgandan so'ng jinoyatni tergov qilish yoki sudda muhokama qilishda ma'lum muddat o'tishi lozim, ya'ni ba'zi turdagi jinoyatlarda ma'lum vaqt o'tmasdan turib uning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligini aniqlab bo'lmaydi. Misol uchun, bir qancha jinoyat ishlari bo'yicha dastavval tergov qidiruv munosabati bilan to'xtatilgan bo'lsa, oradan bir qancha vaqt o'tganidan so'ng mazkur qilmishlar uncha og'ir bo'lmagan jinoyat turkumiga kirganligi va oradan muddat o'tganligi sababli qilmish o'zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligini inobatga olib, jinoyat ishi JPKning 84-moddasi beshinchi qismi 1-bandiga asosan tugatilgan [9].

Tugatilgan jinoyat ishlarini o'rganish davomida ish qo'zg'atilgandan so'ng o'tgan vaqt shaxsning ham ijtimoiy xavfliligi yo'qolishiga xizmat qiladi, degan xulosaga olib keladi. Masalan, jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, O.M. 2017-yilning 6-avgustida fuqaro M.K.ni urib, unga "o'rtacha og'ir tan jarohati" yetkazgan. Ishni tergov qilish jarayonida jabrlanuvchi bilan yarashganligi sababli M.K. unga nisbatan da'vosi yo'qligi va jinoyat ishini tugatishni so'rab, ariza bilan murojaat qilganligi, shuningdek, O.M. faoliyat olib borayotgan jamoasi tomonidan ijobiy tavsiflanganligi sababli vaziyat o'zgarishi oqibatida shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilgan va jinoyat ishi mazkur asosga ko'ra tugatilgan [10].

Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo'qotilishi uning qanday turdagi jinoyat sodir etishi bilan ham bevosita bog'liq, degan fikrdamiz, ya'ni og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi ham bir necha barobar yuqori bo'ladi va vaziyat o'zgarishi oqibatida bunday shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi dargumon.

Bugungi kunda amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina hollarda jinoyat natijasida yetkazilgan zararining bartaraf etilishi mazkur bandning qo'llanilishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, Farg'ona viloyati prokuraturasi tomonidan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha 2019-yil 11-sentabrda 35 mln. so'm va 2021-yil 6-oktabrda 16 mln. so'm, Toshkent shahar Yunusobod tumani prokuraturasining 2021-yil 6-fevraldagi jinoyat ishi bo'yicha 14 629 347 so'm va boshqa ko'pgina tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi hujjatlari bo'yicha yetkazilgan moddiy zararining qoplanganligi holati qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb baholashi uchun asos sifatida olingan [9].

Mazkur tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi hujjatlarini o'rganish davomida JKning 167-moddasi va unga ergash moddalar, ya'ni JKning 205–207, 227–228 va boshqa moddalarining ham o'z ahamiyati yo'qolishiga olib kelganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, JKning 167-moddasi to'rtinchi qismi rag'batlantiruvchi norma sifatida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligini nazarda tutadi. Yuqoridagi kabi har bir ishda yetkazilgan moddiy zarar o'rnining qoplanganlik holati uning ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi sifatida baholansa, "unda mazkur



normaning rag'batlantiruvchi qismi o'z ahamiyatini yo'qotmaydimi?" degan tabiiy savol tug'iladi.

Z. Zaripov va A. Yakubovlarning fikrlariga ko'ra, mazkur holat javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo'llash jarayonida eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolardan sanaladi. Bunda jinoyat sodir etilgandan so'ng sharoit hech bir o'zgarmagan bo'lishiga qaramay, uni «maqsadga muvofiq emasligi sababli» qo'llaydilar hamda jinoyat ishini tugatish uchun asos sifatida maqsadga muvofiq emaslikni asoslash maqsadida ko'pincha yetkazilgan zararining bartaraf qilinganligi, zararli oqibatlari tugatilganligi va aybni yengillashtiruvchi boshqa holatlarni ko'rsatadilar [5, 356-358-b.].

Mazkur olimlarning fikrlari yuqoridagi amaliyot tahlili bilan zid. Shunday bo'lsa-da, mazkur amaliyotda qabul qilinayotgan qarorlarning qanchalik qonun hujjatlariga muvofiqligini o'rganish va baholash uchun quyidagi normativ hujjatlarni tahlil etamiz.

Jumladan, 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunga ko'ra, o'g'irlik va firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning mulkini talon-toraj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toraj summasi miqdoridan qat'i nazar kelib chiqadi. Biroq talon-toraj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmagan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning shaxsiga oid ma'lumotlar hamda moddiy zararining qoplanganligini inobatga olgan holda, jinoyat ishini Jinoyat kodeksining 65- va 66-moddalariga asosan tugatish masalasini muhokama etishi kerakligi belgilangan [11].

Xuddi shunday talabni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli «Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorining 16-bandida ham uchratishimiz mumkin. Unda "fuqarolar mulkini firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toraj miqdoridan qat'i nazar kelib chiqadi. Ayni paytda talon-toraj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning shaxsi va moddiy zarar qoplanishiga oid ma'lumotlarni inobatga olgan holda, JK 65-, 66-, 70-, 71-moddalarini qo'llash masalasini muhokama etishlari shartligi belgilangan [12].

Shuningdek, Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrdagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi 20-sonli qaroriga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslar jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplagan, aybiga iqrorlik va chin ko'ngildan pushaymonlik bildirgan hollarda, dastlabki tergov organlari va sudlar JK 65-, 66-, 70-, 71-moddalariga asosan, tegishli jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilish masalasini muhokama qilishlari shart [13].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliyotda qabul qilinayotgan qarorlarni qonunga zid deb baholab bo'lmaydi. Zero, mazkur hujjatlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasi 4-qismiga asosan ijro etilishi majburiy xarakterli hujjatlar sirasiga kiradi [14].

Shu sababli mazkur asosni qo'llashda qonun chiqaruvchi JKning maxsus qismi normalariga umumiy bo'lgan, sharoitning o'zgarishi tufayli qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi asosiga biror-bir imperativ ta'rif berishning imkoni mavjud emas degan xulosaga kelamiz, ya'ni ushbu holatga baho berish ma'lum makon, vaqt va sharoitda bo'lgan hamda uni aniq baholay olishi mumkin bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi va sudning ichki ishonchidan kelib chiqadi, biroq sharoitning o'zgarishi natijasida shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi holatiga quyidagicha umumiy ta'rif berish lozim deb hisoblaymiz.

Sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi – shaxs muqaddam ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan va ish bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilayotgan vaqtga kelib, uning xulqida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan, jinoyat oqibatlarini bartaraf etgan, yetkazilgan moddiy zararni qoplagan yoki shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgach, harakatlarini cheklovchi og'ir dardga chalinishi natijasida uni javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas deb topilishidir.

Yuqoridagi tushuncha bilan bir qatorda, mazkur javobgarlikdan ozod etishning turiga yana bir shart, ya'ni qilmish, albatta, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar turkumida bo'lishi lozimligini majburiy shart sifatida kiritish lozim. Biroq bunda ba'zan og'ir turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning butunlay harakatlari cheklanadigan bedavo dardga chalingan hollarda javobgarlikka tortishga to'g'ri keladi va bu holatni ham to'g'ri deb baholab bo'lmaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5542-son Farmoni asosidagi nizomda komissiya xulosasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod etish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi beshinchi qismida belgilangan asoslarga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish yoki ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish tarzida amalga oshirilishi belgilab qo'yilganligi JPKning talablariga ziddir. Chunki komissiyaning xulosasi bu o'rinda surishtiruvchi, tergovchi va sud uchun majburiy xarakterga ega. To'g'ri, qaysidir ma'noda komissiya "sharoit o'zgarganligi natijasida shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganmi yoki yo'q?" degan savolga javob berishga xizmat qilmoqda, biroq bunday qoida JPKda mavjud emasligi va bu o'z o'rnida surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning protsessual mustaqilligini cheklashi mumkin. Muqaddam ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalarimizda ushbu muammoning huquqiy yechimi yuzasidan o'z takliflarimizni berib o'tganmiz.

Shuningdek, JKning 65-moddasi va JPKning 84-moddasi bergan vakolatga muvofiq, ushbu asosni faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng jinoyat ishini dastlabki tergov va sudga ko'rish jarayonidagina qo'llash mumkin va tergovga qadar tekshiruv natijasi o'laroq, JPKning 333-moddasi ushbu band yoki JPKning 84-moddasi beshinchi qismi biror bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon bermaydi.



Shunday bo'lsa-da, yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu asoslar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv hujjatlari natijasi yuzasidan ish yurituvni rad etish to'g'risida qarorlar qabul qilinmoqda va JPKning 84-moddasi asosida qabul qilingan barcha hujjatlarga amaliyot uchun ma'lum bo'lgan B.V, ya'ni "без возбуждения" (ish qo'zg'atmasdan) jinoyat ishi raqami beriladi, masalan, B.V.302122/2021-17-sonli jinoyat ishi.

Bu borada ilg'or xorijiy davlatlardan Yaponiyaning jinoyat protsessual kodeksi 248-moddasida "Agar jinoyatchining shaxsi, yoshi va sharoiti, jinoyatning og'irligi va holatlari, jinoyat sodir etilgandan keyingi holatlar jinoiy javobgarlikka tortishni talab qilmasa, jinoiy ish qo'zg'atilishi mumkin emas"ligi belgilangan [15].

Bundan tashqari, Qirg'iziston [16], Qozog'iston [17], Ozarbayjon va boshqa ko'plab davlatlarda [18] ham qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etishda jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham ish yuritilishi rad etilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Ko'rinib turibdi, qonun chiqaruvchi amaliyot taqozo qilayotgan ba'zi qoidalariga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishi lozim. Shu sababli jinoyat kodeksining 65-moddasiga quyidagi tartibda o'zgartirish kiritish zarur.

65-modda. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Ishni «tergov qilish yoki sudda» (mazkur jumlaning chiqarib tashlash) ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ishni «tergov qilish yoki sudda» (mazkur jumlaning chiqarib tashlash) ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 84- va 333-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

84-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib rad etilishi yoki tugatilishi mumkin, bosharti:

1) ishni ko'rish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilsa.

333-modda. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish

Ushbu Kodeksning 83-moddasi 1- va 2-bandlari hamda 84-moddasi birinchi qismining 1-, 3- va 8-bandlarida, **shuningdek, 84-moddasi beshinchi qismi 1-3-bandlarida** nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi; jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi prokurorga yuboriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har bir jabhasida bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada ham inson qadri va manfaatlarini yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. The general part. 1994, September 22. Available at: <https://lex.uz/acts/111453/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari [Information of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan] Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2/>.
3. Rustambayev M.X. The course of the Criminal Law of the Republic of Uzbekistan 1 full part of the criminal doctrine periodical for higher education institutions. 2nd ed. Tashkent, 2018, pp. 195–199.
4. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2010, p. 321.
5. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Academy of the Ministry of Internal Affairs. Tashkent, 2009, p. 356–358.
6. Yendolseva A.V. Utrata litsom svoyn prejney obshesvenniy opastnosti kak uslovie osvobodeniya ot ugolovnoy otvetsvennosti [Loss by a person of his former public danger as a condition of exemption from criminal liability.] // *Legal Lawyer*, 2016, no. 6 (79), pp.74–78.
7. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, p. 128.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi [Second paragraph of Paragraph 2 of the resolution of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated February 3, 2006 No. 1 "on the practice of imposing punishment for a crime by the courts"]. Tashkent, 2006. Available at: <https://lex.uz/docs/1455976/>.
9. Xizmat safari natijalari. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining 27.04.2022-yildagi 15/07-2-62925/22-sonli ma'lumotnomasi. [The results of the business trip of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan dated 27.04.2022 15/07-2-62925/22-directory of numbers].
10. Xizmat safari natijalari. O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamentining 21.03.2022-yildagi 18/2509-sonli ma'lumotnomasi [Results of the business trip



reference book of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan dated 21.03.2022 No. 18/2509].

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 21-maydagi «Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi № 4-sonli qarori [Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated May 21, 2004 No. 4 "On certain issues of applying the law on the liberalization of punishments to crimes in the field of Economics" Resolution]. Tashkent, 2004. Available at: <https://lex.uz/docs/1454894/>.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi «Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi № 35-sonli qarori [Resolution of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated October 11, 2017 No. 35 "On judicial practice in cases of fraud]. Tashkent, 2017. Available at: <https://lex.uz/docs/3399888/>.

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrdagi «Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida»gi № 20-sonli qarori [Resolution of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated December 11, 2013 No. 20 "On certain issues of judicial practice in cases related to entrepreneurial activity]. Tashkent, 2013. Available at: <https://lex.uz/docs/2307198/>.

14. O'zbekiston Respublikasining 28.07.2021-yildagi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On courts", dated 28.07.2021 No. 703]. Tashkent, 2021. Available at: <https://lex.uz/docs/5534923/>.

15. Yaponiya jinoyat-protsessual kodeksi (Keydзи-soshyo-xo) [Criminal Procedure code of Japan (Keydзи-soshyo-Ho)]. Law 10.07.1948. No. 131.

16. Qirg'iziston Respublikasi JPKning 24-27-moddalari [Articles 24-27 of the Code of the Kyrgyz Republic 28 October 2021 No. 129]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111527/>.

17. Qozog'iston Respublikasi JPKning 32-, 33-, 35-36 moddalari [Articles 32.33.35-36 of the Code of Criminal Procedure of the Republic of Kazakhstan].

18. Ozarbayjon Respublikasi JPKning 37-44-moddalari [Articles 37-44 of the Code of Criminal Procedure of the Republic of Azerbaijan].

KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

4 / 2022

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

Q. Abdurasulova

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR:

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

N. Salayev

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2023-yil 1-fevralda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 7,9 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 9.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti